

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI
VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O`ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

Qo'l yozma huquqida

OCHILOVA MAFTUNA SHUXRATOVNA

NAVOIY ASARLARIDA SABR TALQINI

**MALAKAVIY BITIRUV
ISHI**

bakalavr darajasini olish uchun

Ilmiy rahbar: dots. T.Xo`jayev

NAVOIY-2013

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Alisher Navoiy jahon adabiyotining eng yirik namoyandalaridan biridir. U yuqori kamolot bosqichidagi buyuk aql egasi – chin ma’nosi bilan buyuk shoir, mutafakkir va ulug` inson edi. Navoiydan qolgan buyuk adabiy meros bir necha asrlar davomida Oрта va Yaqin Sharq xalqlarining adabiyoti va fikriy taraqqiyotiga zo’r ta’sir ko’rsatib keldi.

O‘zbek adabiy tili va adabiyoti so‘nggi besh asr ichida Navoiy merosi asosida taraqqiy etdi, uning ilg‘or an`analarini davom ettirdi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta’biri bilan aytganda, “Inson qalbining quvonch-u qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz”¹

Bugungi kun adabiyotshunoslarning vazifasi Yurtboshimizning ana shu fikrlariga suyangan holda, Alisher Navoiy asarlarini mustaqillik davri talablaridan kelib chiqqan holda yanada chuqurroq o‘rganish va keng targ‘ib etishdan iboratdir.

Prezidentimiz I.A. Karimov o‘zining ma’naviyat, madaniyat tarixiga doir so‘zlagan deyarli barcha nutq va ma’ruzalarida Alisher Navoiyni yuksak ehtirom ila tilga oladi, uning asarlari zamonamizning komil insonlarini tarbiyalashda muhim qurol, vosita bo‘lishini ta’kidlab o‘tadi.

Hazrat Alisher Navoiyning buyuk nazmiy va nasriy asarlari so‘z boyligi bilan ham, uslubi bilan ham ulkan bir xazina hisoblanib, ularning lisoniy-uslubiy xususiyatlarini o‘rganish hamon dolzarb vazifalardan bo‘lib qolmoqda.

Alisher Navoiydan bizga buyuk bir adabiy – ilmiy meros qolgan. Hozirgi kunlarda Navoiyni tushunish, ijodiy merosini targ‘ib va tashviq etishni ilmiy asoslarda tashkil qilish masalasi davlat siyosati darajasiga qo‘yilmoqda ekan, navoiyshunoslarga muayyan qulaylik yaratish maqsadida mazkur bo‘shliqni bir

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat -yengilmas kuch.-Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.-B.47-48.

qadar to'ldirishga urinib, Navoiy 10 jildlik asarlari nashridagi matnlar asosida yodga olingan asarlar jamlandi va foydalanish oson bo'lishi uchun alifbo tartibida berish joyiz ko'rildi. Bu biz yosh tadqiqotchilar uchun bir talay qulayliklar tug'dirdi.

Hazrat Alisher Navoiy ijodining tarixiy ahamiyati, ayniqsa, mustaqillik yillarida, xalqimiz istiqloлга erishgandan so'ng yanada ortdi. Chunki Navoiyga bo'lgan xalqimizning buyuk ehtiromi Prezidentimizning 1991-yilni "Navoiy yili" deb e'lon qilishida o'z ifodasini topdi. Navoiy va uning ijodiga nisbatan yangicha qarash va yondashuvlarning qutlug' qadami mustaqilligimizning ilk kunlarida boshlanganligi xayrli ishning boshida turganligimizdan darak beradi.

Navoiy ijodi biz uchun betimsol maktab. Buyuk shoir o'z asarlari bilan mangu barhayot ekan, biz uni o'rganishda va yangi – yangi qirralarini kashf etishda davom etmog'imiz lozim. O'z buyuk farzandining xotirasini muqaddas saqlash, uning adabiy merosiga chuqur e'tiqod qo'yish, sidqidildan o'rganish xalqimizning sharaflı ishi va muqaddas burchidir. Alisher Navoiy bizning shamsul millatimiz, ya'ni millatimizning quyoshidir.

O'zbek adabiyotshunosligida Navoiy ijodi bo'yicha qator tadqiqotlar qilingan va yana bu an'ana davom etmoqda. Navoiy asarlarida ko'p masalalar qalamga olingan. Ularning har birini alohida-alohida o'rganish muhim ishlardan. Ushbu bitiruv malakaviy ishida shoirning dostonlari, she'riy, nasriy asarlarida sabr haqidagi fikrlariga e'tibor qaratildi. Sabr haqida kichik maqolalar yozilgan bo'lsa-da, shoirning barcha asarlarida bu masalaning yaxlit o'rganilishi ilk bora amalga oshirilmoqda. Bu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Alisher Navoiy asarlari ko'pgina adabiyotshunoslar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, ijodkorning nasriy va she'riy asarlarida uchraydigan sabr haqida ko'pgina tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu mavzu bo'yicha I. Haqqulovning qator asarlarida ² N.Komilov³, I. Ahror⁴, Sultonmurod Olim⁵ kabilarning kitob va maqolalarini ko'rsatish mumkin. Ushbu

² Haqqulov I. "Sabr-iroda ishi", "Tafakkur"jurnali. 2009, Mushohada yog'dusi. Toshkent:"Fan", 2009; Navoiyga qaytish. Toshkent: "Fan", 2007.

³ Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent:"Movarounnahr", 2009. –B. 197

⁴ WWW. Ziyo net.Uz. Ilhom Ahror. Sarchashmalar.

⁵ Sultonmurod Olim. Naqshband va Navoiy-Toshkent: "O'qituvchi", 1996.-B-107.

bitiruv ishini yozishda ana shu manbalarga suyanildi. Ishni yozishda ulardan unumli foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi Alisher Navoiy asarlarida sabr bilan bog‘liq fikr-mulohazalarni, sabr so‘zining turli xil ma’nolarda qo‘llanilganligini tadqiq etishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalarga e’tibor qaratildi:

- Navoiyning turkiy tildagi barcha asarlarini o‘qish va tahlil qilish;
- shoir asarlarida qo‘llangan sabr so‘zi bilan bog‘liq tushunchalarni topish;
- dostonlarida qo‘llanilgan sabr tushunchasini aniqlash va mohiyatini yoritish;
- she’riyatidagi sabr tushunchaning ifodalanishi va ulardagi ma’no nozikliklarini tahlil qilish;
- ijodkorning nasriy asarlaridagi sabrning ma’nolarini aniqlash;
- Alisher Navoiy asarida qo‘llangan sabr tushunchasining turli ma’nolarini yoritish;
- ushbu tushunchaning shoir asarlarida uchraydigan sabr so‘zi bilan bog‘liq boshqa tushunchalarni aniqlash va boshqalar.

Bitiruv malakaviy ishining ob`ekti va manbalari. Bitiruv malakaviy ishini yozishda asosiy manba sifatida Alisher Navoiyning 10 jildlik asarining 8-9 jildiga (Alisher Navoiy. Asarlar. 10 jildlik, 8-9 jild. Toshkent: “O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2011.), “Xamsa” asari (Alisher Navoiy. “Xamsa”. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006), Devon (Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. Devon. 1, 2, 3, 4. Toshkent: “Tamaddun” 2011.), “Mahbub ul-qulub”, (Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.), “Munshaot” (Alisher Navoiy. Munshaot. Toshkent: “Ma’naviyat” 2001) kabi asarlardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari. Bitiruv malakaviy ishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning milliy g‘oya, ma’naviy qadriyatlarga munosabat va ilm-fan taraqqiyoti bilan bog‘liq fikrlariga suyanildi.

Shuningdek, adabiyotshunos olimlar A.Hayitmetov, N.Mallayev, A.Qayumov, A.Abdugodirov, S.Gʻaniyeva R.Vohidov, Yo.Isʻhoqov, I.Haqqul kabi olimlarning tadqiqotlaridan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Alisher Navoiyning asarlarida qoʻllanilgan sabr tushunchasi xususida ayrim ishlar qilingan, biroq ijodkor merosida bu tushuncha barcha asarlari boʻyicha tahlil qilinmagan. Ushbu bitiruv malakaviy ishida shoirning turkiy tildagi barcha nasriy va sheʼriy asarlaridagi sabr tushunchasining yoritilishi oʻrganildi. Shoir asarlarida uchraydigan sabr bilan bogʻliq fikr-mulohazalar aniqlandi, umumlashtirildi. Bu bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Alisher Navoiyning barcha sheʼriy va nasriy asarlarida uchragan sabrning maʼnolari alohida-alohida talqin etildi. Ushbu bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati quyidagilarda koʻrinadi:

- Navoiy asarlarida uchraydigan sabr tushunchasi ilk marta oʻzbek adabiyotining soʻnggi yutuqlari asosida oʻrganildi;
- ishda olingan ilmiy natijalardan oʻzbek adabiyotidan oʻquv qoʻllanmalari, maʼruza matni tayyorlashda, referat, seminar, amaliy mashgʻulot darslarida foydalanish mumkin;
- shuningdek, oʻzbek adabiyoti tarixi kursi boʻyicha Navoiy asarlarini oʻrganishda qoʻshimcha material boʻlib xizmat qiladi.

Ishning hajmi va tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

I.BOB. NAVOIY DOSTONLARIDA SABR TALQINI

1.1. “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA SABRNING IFODALANISHI

O‘zining bebaho badiiy va ilmiy asarlari bilan Sharq xalqlari taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan ulug‘ mutaffakkir Alisher Navoiyning bebaho asarlarida insoniy tuyg‘ularning oily darajadagi talqinini ko‘ramiz.

Prezidentimiz I.A. Karimov o‘zining ma’naviyat, madaniyat tarixiga doir so‘zlagan deyarli barcha nutq va ma’ruzalarida Alisher Navoiyni yuksak ehtirom ila tilga oladilar, uning asarlari zamonamizning komil insonlarini tarbiyalashda muhim qurol, vosita bo‘lishini ta’kidlab o‘tadilar.

“Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g‘ururi, shan-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir. Ta’bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlashuvchi biron-bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa.”⁶

Biz, yosh tadqiqotchilarning vazifasi Yurtboshimizning ana shunday fikrlari, mustaqillik davri talablaridan kelib chiqqan holda Alisher Navoiy asarlarini yanada chuqurroq o‘rganish va keng targ‘ib etishdan iboratdir.

Insonga berilgan Ulug‘ Tangri ne’matlarining barcha-barchasi Alisher Navoiy qalamidan chetda qolmagan. U o‘z ijodida har bir voqea- hodisa, his-tuyg‘uga alohida e’tibor bilan qaraydi. Uning hayotdagi doimiy hamrohi bo‘lgan ilhom, shoirlik iqtidori, haqiqatni anglashga bo‘lgan ehtiyoj, ilohiy ma’rifat, baxt, tole’, ilm, tafakkur va bularning zamirida yotgan asosiy narsa sabr uning ijodida asosiy o‘rinni egallaydi.

Hazrat Alisher Navoiyning o‘lmas merosini ba’zida tubsiz ummonga, ba’zida bahosini hech bir mezon bilan o‘lchab bo‘lmaydigan dur-u javohirlar xazinasiga qiyoslaymiz. Asrlar davomida jahonning ko‘zga ko‘ringan tilshunoslari-yu,

⁶ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. -B. 47.

adabiyotshunoslari uning bebaho ijodiyotining badiiyligi va til xususiyatlarini yoritib berishga harakat qilmoqdalar. Natijada, Alisher Navoiy ijodining yangi-yangi qirralarini zabt etishga muyassar bo'lmoqdalar. Ammo bular Navoiy ijod ummonidan bir qatra, bebaho xazinasidan bir misqol xolos. Biz bitiruv malakaviy ishining ushbu qismida Alisher Navoiyning "Hayratul-abror" dostonida qo'llangan sabr talqiniga to'xtalmoqchimiz.

Biz odatda nochorlikdan qiynalgan paytlarda boriga shukr qiladigan insonni sabrli inson deymiz. Sabr so'ziga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da 2 xil ta'rif beriladi. "Sabr (arabcha-chidam, bardosh, iroda, qatiyat.) 1. Biror holat yoki hodisani bardosh bilan kutish, qanoat hosil qilish; 2. G'am-kulfat, musibatlarga chidash, toqat qilish, bardosh berish."⁷

Tasavvufiy tushuncha sifatida sabr TARIQAT bosqichlarining maqomlaridan biri. "Maqomat – maqom (manzil, bekat) so'zining ko'pligi bo'lib, solikning ruhiy – ma'naviy kamoloti bosqichlarini anglatadi. Abu Nasr Sarroj tariqatning quyidagi maqomlarini qayd etgan: 1. Tavba 2. Vara' 3. Zuhd 4. Faqr 5. Sabr 6. Xavf 7. Rajo 8. Tavakkul 9. Rizo".

Sabr-toqat, chidam. So'fiylar tilida qiyinchiliklardan shikoyat qilmaslik, ayniqsa, Xudodan boshqaga nola-iltijo qilmaslik. Sabr etuvchi (sobir) o'zini balo girdobga solib, balolardan qo'rqmaydigan odamdir. "Sabr kushoyish uchun intizorlikdir".(Sahl Tustariy), ya'ni ruhiy-ma'naviy mushkulliklar yuz berganda, sabr qilgan solik kushoyish topadi, ya'ni manzillarini kashf etadi."⁸

"Hayrat ul-abror" dostoni ibratli fikrlarga boyligi, mazmun-mohiyati jihatidan qimmatliligi bilan ahamiyatlidir. Ma'lumki, asarda 20 ta maqolat keltirilgan. Ushbu maqolatlarda ko'tarilgan masalalar barcha zamonlar uchun xosdir. Dostonning dastlabki maqolati-"Iymon sharhida". Navoiy iymonli insonga xos sifatlarni yozar ekan, ko'pchilik tomonidan javob topilmay kelayotgan bir savolga, ya'ni "Qanday insonni jamiki ezgu xislatlarga ega inson deyishimiz mumkin?",- degan savolga javobni maqolatning 10-baytida beradi:

⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-tom. –Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashryoti, 2007. –B. 409.

⁸ Komilov N. Tasavvuf.-Toshkent:"Movarounnahr", 2009.–B. 26-28.

Bas ani inson atag'il beriyo,
Kim ishidur **sabr** ila shukr-u hayo.⁹

Ya'ni: Sen shunday odamni to'g'ri, riyosiz deb bilgin, qachonki u sabr bilan, shukr-u hayo bilan ish ko'rsa.

Darhaqiqat, insonning hayot deb atalmish maskanda atrofdagilari tomonidan to'g'ri deya tan olinishi eng murakkab va mushkul ishdir. Bu nomga sazovor bo'lish uchun shoir nazdida insonda eng avvalo sabr bo'lishi lozim.

Alisher Navoiy tomonidan yuksak ardoqlangan ustoz Abu Lays Samarqandiy insonlarning yaxshi darajasiga yetishishi haqida: "Bilgilki, banda yaxshilarning darajasiga aziyatlari va mashaqqatlarga sabr qilish bilan erishadi"¹⁰, - deydi. Bu masalada ustoz-shogird munosabatlaridagi hamfikrlikni ko'rish mumkin.

Navoiy asarlarini o'qir ekanmiz, unda bir-biriga zid bo'lgan obrazlarga duch kelamiz. "Hayrat ul-abror"ning XXXV bobida ham biri sabrli bo'lgan, ikkinchisi sabrsiz va shoshqaloq bo'lgan ikki hamroh hikoyati keltiriladi. Bu haqda navoiyshunos olim I.Haqqul quyidagilarni bayon etadi: "Navoiy aksariyat o'rinlarda nodonga dononi zid qo'yib mushohada yuritadi. Bu go'yo qorong'ulikqa qarshi yorug'lik haqida so'zlayotganga o'xshaydi".¹¹ Shoir hikoyatida hamrohlar yo'lda bir toshga duch kelishadi. Toshning orqa tarafida bir yozuv bo'lib, unda xazina haqida gapirilgandi. Mashaqqatiga bardosh bergan inson xazinaga ega bo'lar ekan. Bu mashaqqatlardan yiroq yurishni istagan kishi uchun eng yaxshi narsa-sabr qilish.

Har kishi bu ranjdin o'lsa yiroq,
Sabr-u qanoat boridin yaxshiroq.(125-bet)

Sabrli inson hamrohining boylik hirsida toshning tagini qazishga tushib ketganligini ko'rib, beparvo o'tib ketadi va bir shaharga borib qoladi. Darvozadan birinchi kirgan kishi ushbu mamlakatga podshoh bo'lishi belgilangan edi. U mamlakat shohi bo'ladi. Shoshqaloq esa ko'p mehnat qilib "Kim xomtama bo'lsa,

⁹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. -B. 74. (Izoh:boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifada beti ko'rsatiladi.)

¹⁰ Tafakkur durdonalari. 111 Vatandosh allomalarimizning hikmatli fikrlari. -Toshkent, 2012.-B. 257.

¹¹ Ibrohim Haqqul. Mushohada yog'dusi. -Toshkent:"Fan,"2009. -B. 55.

u dunyoda doim azobda”,-degan yozuvvagina erishib, tamagirlikda xor-zor bo‘ladi.

Oni **qanoat** qilibon shahriyor,
Muni tama’ ranji qilib xoksor. (126-bet)

Navoiy bu hikoyat orqali sabr insonni har qanday vaziyatda to‘g‘ri yo‘lga boshlashini dalillaydi. Hikoyat Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi Yapaloqqush va Ko‘rqush o‘rtasidagi suhbatni eslatadi.

Sabr bilan basta eshikdur kushod,
Sabr bilan topadi eranlar murod.
Sabr qilsang g‘oradin halvo bitar,
Besabrlar o‘z ayog‘idin yitar.¹²

Kushod-ochilgan, ochiq ma`nosini ifodalaydi. Eran. 1.Erkak, odam, inson. 2.Askar, soldat ma`nosida qo‘llaniladi.¹³ Sabrli inson uchun barcha eshiklar ochiq. Bunday inson, albatta, o‘z murodiga yetadi.

Navoiy asarning alohida bir bobida sabr timsoli hisoblanmish Ayyub payg‘ambar haqida hikoya qiladi. Bob so‘ngida lirik chekinish sifatida yozilgan ikki-uch baytli soqiynoma shoirning sabrga bo‘lgan munosabati va uning shaxsiyatidagi kuchli iroda sohibi ekanligini ko‘rsatadi.

Bot bo‘l-u bir jom ila yetuk futoh,
Sabr esa Ayyubcha, yo‘q umri Nuh.(174-bet)

Ushbu bayt tasavvufiy mazmunga ega. Shoir umrim Nuh umricha bo‘lmasa ham, sabrda Ayyubcha borman deydi. Ma’lumki, Ayyub payg‘ambar sabr-toqat timsoli sifatida talqin etiladi.

Maloyiklar Yaratganga Ayyub faqat senga ibodat qilgani uchun unga behisob davlat-ilohiy xislat berilgan, deb malomat qiladilar. Alloh bu ne’matlarni bermasam ham uning ishi toatdir, deya g‘aybdan balo yuborib, uni sinaydi. O‘n o‘g‘il tom bosib halok bo‘ladi, o‘zi xastalikka uchrab, butun tanasini qurt qoplab oladi. Odamlar o‘zlarini undan chetga olishadi. Ayoli tilanchilik qilib, unga

¹² Gulxaniy. Zarbulmasal. –Toshkent, 1972. –B. 13.

¹³ Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar uchun lug‘at. –Toshkent, 2010. –B. 212-217.

mehribonchilik ko'rsatadi. Shayton ayol qiyofasiga kirib, pul berib sochidan qirqib berishini so'raydi. Va erkak qiyofasiga qaytib uni Ayyubga ko'rsatadi...Olim ilohiy sinov aks etgan shoirning bir jumlasiga e'tibor qaratadi: "Badanidagi qurtlarning birortasi tushib ketguday bo'lsa, Ayyub uni olib qayta joyiga qo'yar, sizlarni Tangri nasib etgan derdi". Alloh inoyati bilan u yana sog'ayadi. Xotini Rahimaning pokligi isbotlanadi. Halok bo'lgan bolalari tirilib keladilar.¹⁴

Diqqatingizni yana bir narsaga qaratmoqchimiz. Nima uchun shoir iymonga bag'ishlangan bobda sabrga yuksak baho beradi? Bizningcha, Navoiy sabrni iymonning ajralmas bir qismi, uning asosi deb talqin qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonining o'n ikki, o'n to'qqiz, yigirma besh, qirq yettinchi boblarining har birida bir baytdan iborat 8 misra she'rda sabr tilga olinadi. Ushbu misralardan quyidagilar anglashiladi:

- 1.Asar pandnoma bo'lganligi sababli sabrli bo'lish haqida o'git beradi.
2. Inson yaxshiligi, to'g'riligi uning sabrliligi bilan o'lchanadi.
- 3.Sabrsiz qay ahvolga tushishini hikoya orqali obrazli aks ettiradi.
- 4.Navoiyning osmon ilmidan yaxshi xabardorligi.
- 5.Shoir shaxsiyatidagi sabrlilik xususiyati yuksakligi va boshqalar.

¹⁴ WWW. Ziyo net.Uz. Ilhom Ahror. Sarchashmalar.

1.2. “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA SABR TALQINI

“Farhod va Shirin” dostonining bosh qahramoni Farhod timsolida komil inson gavdalanitirilgan. Shu boisdan Farhod har jihatdan yetuk shaxs. Dostonni o‘qir ekanmiz, Farhod otasi tavsiya etgan toj-u taxtni qabul qilmasligi, me‘mor Boniy, naqqosh Moniy, tosh yo‘nuvchi Qorandan hunarlarni o‘rganishi, Yunonistonga borguncha uch manzilni bosib o‘tishi birinchi ajdahoni, ikkinchi Ahriman devni, uchinchisi esa ikkalasidan ham mushkulroq tilsimni yengishi, Arman yurtidagi suv chiqarishdagi jasorati, Xusrav bilan o‘zaro munozaralarida, o‘z-o‘zini anglashga bo‘lgan intilishi, o‘zining baxtsizligi evaziga o‘zgalarga baxt hadya etishi uning shaxsiyatidagi ulkan olijanoblilik belgisidir. Bularning barchasiga Farhod qanday dosh beradi? Albatta, sabrliligi va qanoati sababli. Umuman olganda, Navoiy ijodida “Xamsa” dostonlari va uning nasriy asarlarini tahlil qilganimizda, qahramonlaridagi ikki xil ishqni: ilohiy va insoniy ishqni ko‘rish mumkin. Dostondagi obrazlar tasavvufiy ma‘nolarga ega. Farhod yenggan ajdaho, dev, temir odam shunchaki xayoliy obrazlar emas, uning botiniy olamidagi nafsoniy istaklar timsolidir. Tasavvufda nafsni yengish quroli sifatida ishq birinchi darajali deb qaralgan, shu sababli Farhodning muhabbati nafsni yengishga asos bo‘ldi. Lekin bunda asosiy vazifani bajarishda nafsni otning jilovi sifatida tasavvur etsak, jilovning bir tomonini ishq, ikkinchi tomonini esa sabr deyishga to‘la haqlimiz. Chunki sabr insonni poklaydi, toblaydi ma‘naviy jihatdan yuksaltiradi. Shuni ta‘kidlash joizki, Navoiy Farhodni biror o‘rinda sabrli deya ta‘riflamaydi. Uning ezgu amallari va dostonning boshlanishidan yakuniga qadar kitobxon Farhodda barcha insoniy xislatlarning, ayniqsa, sabrning oily darajasini ko‘radi.

VIII bobda shoir dostonning yozilish sababini yozar ekan, bu dostonni yozishni orzu qilgani, unga sevgi balosi uchraganini aytadi. Uning ta‘rifini keltirar ekan:

Ko‘zi solg‘och ko‘ngul kunjig‘a oshub,

Bo‘lub kipriklari **sabru** xiradro‘b. ¹⁵

Shoir qalbiga ishq o‘tini yoqqan mahbuba ko‘ngil go‘shasiga bezovtalik solgach, kipriklari sabr-u aqlni supirib tashlash uchun suzilardi. Yana bir o‘rinda:

Olib anjum kibi **sabr-u qarorim**,

Qaro aylab kechadek ro‘zg‘orim,- (27-bet)

deydi. Ul go‘zal shoirning sabr-u qarorini o‘g‘irlab hayotini tun misol qorong‘ulikka aylantiradi. Yuqoridagi holatda Hazrat Navoiyning doston yozishga bo‘lgan ishtiyoqi sabr-u qarorini tugatganligi bayon etilgan. Endi shoir bu balodan dostonni yozmasa qutila olmaydi. Uning butun vujudini doston yozish xayoli qamrab olganki, ko‘ngli dostonni yozsagina orom topadi.

Nizomiy Ganjaviy dostonida Farhod Shiringa oshiq bo‘lib, uning ovozi eshitib, hushidan ketishi, bora-bora dunyodan o‘tganligi voqeasi hikoya qilinadi. Navoiy dostonida buni quyidagicha yozadi.

Qaror-u sabri itti, hushi ketdi,

Anga yeti ishi oxirki yetti. (34-bet)

Farhod ajdarga qarshi ayovsiz kurashadi. Ajdarning vahshiy holatini shoir uning ko‘zi Farhod tomonga tushishi bilan g‘azablanganligidan sabri tugab jang qilishga kirishganligini hikoya qiladi.

Ko‘zi tushgan zamon shahzoda sori,

G‘azabdan qolmayin **sabr-u qarori**. (105-bet)

Farhod Shirinni ko‘zguda ko‘rib oshiq bo‘lib qolgach, qanday yo‘l tutishni bilmay qoladi. Otasini tashlab ketsa tezda toptirib kelishidan xavotirga tushadi. O‘g‘lini toptirish uchun u bir lahza ham sabr qilmaydi.

Muqarrardurki shohi kishvaroro,

Zamone qilmayin **sabr-u madoro** . (137-bet)

Jaloliddin Rumiy ruboiylaridan birida quyidagicha yozadi:

Ey musulmon seniki istarsen adab,

Sabr qil, gar bersa ozor beadab. ¹⁶

¹⁵ Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. –Toshkent; ”G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi” 2006. -B. 25. (Izoh:boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifada beti ko‘rsatiladi.)

¹⁶ Mavlono Jaloliddin Rumiy. Hikmatlar. –Toshkent: ”Fan”, 2007. –B. 83.

Ushbu bayt Farhodga atalgandek go‘yo. Unga jabr-zulm qilgan Xusravga hech qachon ozor bermaydi. Zindondan ketsa, soqchilar jazolanmasligi uchun sabr toqat bilan chidaydi. U shunday sabrli bo‘lishiga qaramay, o‘rni bilan ichidagi bor dardlarini yulduzlarga aytadi:

Chu bo‘ldi **toqati-yu sabri** barbod,
Chekib faryod qildi navha bunyod. (248-bet)

Farhod tunda Zuhul yulduziga murojaat qiladi:

Vujudung hajr tog‘idek garon sang,
Ayog‘ing **sabr** shaxsidek kuhan lang.
Bu dardim ichra ber sabu sabote,
Ki, yo‘q jonimda hijrondin hayote. (250-251- betlar)

Ya‘ni: sening vujuding ayriliq tog‘iday og‘ir toshday og‘ir toshdan. Oyog‘ing esa kishinig sabridek asli cho‘loqdir. Sen bu dard ichida menga chidam va to‘zim ber. Hijron tufayli jonimda tiriklikdan nishon qolmadi.

Farhodga ko‘ngil bergan Shirinning ahvolini ko‘rib Mihinbonu ham ko‘p azob uqubatlarni boshidan kechiradi.

Boshi ustida Bonu ashkrezon,
Qaroru sabri ko‘ngildin gurezdon. (256-bet)

Navoiyshunos olim I.Haqqul “Mushohada yog‘dusi” nomli asarida: “Tasavvufning tavnani-tavbasizlikka, sabrni-besabrlilikka, oriflik va komillikni-jaholat va nodonlikka qarshi qo‘yib, tavba, vara’ tavakkul, rizo, shavq singari atamalarni asosiy istilohlarga aylantirishi ham adabiyotimizdagi qadimdan mavjud axloqiy-didaktik yo‘nalishning keng quloch yozib teranlashib borishga yaqindan yordam ko‘rsatgandi”.¹⁷ Dostonda bir tomonda sabrli va oliyjanob shaxs ikkinchi tomonda xudbin va sabrsiz badfe‘l Xusrav obrazlari bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan. Farhodda insoniy ishqning, ya‘ni Shiringa bo‘lgan ishq, Ollohga bo‘lgan muhabbati yo‘lida katta maktab vazifasini o‘taydi. U bu yo‘lda qanchalik zahmat cheksa, shunchalik darajada qiyinchiliklarga sabr bilan javob qaytaradi.

Noahillarga sabr et, ey ko‘ngil,

¹⁷ Ibrohim Haqqul. O‘sha asar. –B. 97.

Har nechuk ko'ngilni poklaydir sabr...¹⁸

Rumiy e'tirof etgan "ko'ngil pokligiga" Farhod erishadi.

Chekib gardung'a ohining sharorin,

Ki, o'rta b ul sharar sabr-u qarorin. (274-bet)

Shirin Farhodning xatini o'qigandagi holati tasvirlangan.

Xulosa qilib aytganda, "Farhod va Shirin" dostonida 10 ta o'rinda, sakkiz, to'qqiz, yigirma ikki, yigirma olti, qirq uch, qirq to'rt, qirq oltinchi boblarida sabr tilga olinadi. Ushbu tushunchalar ko'proq qahramonlarning ruhiy holatini tasvirlash, toqatsizlik ma'nolarida qo'llanilgan.

¹⁸ Mavlono Jaloliddin Rumiy. O'sha kitob. –B. 182.

1.3. “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA SABR TASVIRI

Hazrat Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi ishq haqidagi qarashlarini “Layli va Majnun” dostonidagi obrazlar misolida yanada ochiqroq, ravshanroq bayon etganligini ko‘rishimiz mumkin. “Layli va Majnun” dostoni Sharq xalqlari orasida qadimdan mavjud bo‘lgan rivoyat, qissalar asosida yaratilgan asardir. Ushbu dostonidagi muhabbat mustaqillik yillariga qadar ilohiy muhabbat emas, asosan insoniy muhabbat kuylangan deya bir yoqlama talqin qilingan. Dostonda

Har dam urar edi zulfdek pech,

Og‘zi kibi **sabri** yo‘q edi hech.¹⁹

Majnunning ruhiy holatidagi ushbu kechinmalar tamomila tasavvufiy ma`noga egaligi bilan ahamiyatlidir. Shuni ta`kidlab o‘tish joizki, Navoiy dostonning bosh qahramonlari bo‘lmish Layli va Majnunni haqiqiy ishq uchun tug‘ilgan, Olloh ishqiga muyassar bo‘lish yo‘lidagi solikning kechinmalarini, azob-uqubatlarni yozishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Majnunning qismati xususida I.Haqqul: “Majnunning “o‘z maqsadlariga erishish yo‘li” jangovor kurashchanlik emas, kamolot yo‘li. Uning dushmani-zolim nafs. Navoiy aytmoqchi, to‘qaydagi sherni yengishdan ko‘ra nafs itini mag‘lub qilishni u zo‘rlilik deb biladi. Shu kurashda Majnun sobit va izchildir. Majnun na jamiyat, na zamon va muhit qarshisida taslim bo‘lgan. Chunki u o‘zligi oldida taslim emas edi. Majnun Layliga yozgan maktubida “Yo‘qlik menga gar bo‘lubturur yo‘l. Sen bor bo‘lu bu yo‘qqa yor o‘l”, -deydi. Bu-fanolik yo‘li. Fanolik esa ishq haqiqiyning so‘nggi bosqichi. Bu bosqichga ko‘tarilgan oshiq ruh qushini o‘zlik qafasidan butunlay xalos qilib, boqiy hurlikka erishadi”.²⁰ Darhaqiqat, Majnun komillikka erishishni maqsad qilgan solik bo‘lsa, Layli u yetishmoqchi bo‘lgan haqiqiy ishq ila nurlangan xilqat. Dostonning XVIII bobida Laylining otasi qizini Ibn Salomga berishga

¹⁹ Alisher Navoiy. Layli va Majnun . –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. –B. 70. (Izoh:boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifada beti ko‘rsatiladi.)

²⁰ Ibrohim Haqqul. O‘sha asar. –B. 59.

roziligi bayon etiladi. Garchi qabila boshlig'i qizini berishga rozi bo'lsa ham, lekin uning yoshligini inobatga olgan holda sabr qilish kerakligini aytadi.

Lekin anga **sabr** ham kerakdur,

Kim, shoxi gulim shikastarakdur. (88-bet)

Shikastarakdur-siniq, majruh ma'nosini bildiradi. Ikkinchi misradagi gulimning shoxi siniqdur deganda otasi Laylining ko'nglidan dardlari ketib sog'ayishini nazarda tutgan.

Layli tushida ko'rgan Majnun uning mahzun holidan hayratda. Oy-u kunning rashkini keltiruvchi Laylining bor sabrini ko'z yoshi sel qilib oqizib yuborgan.

Sabrini oqizg'on ashki seli,

Ya'ni mahu mehr rashki Layli.(88-bet)

Farzandni dunyoga keltirgan, tarbiyalagan ota-ona, albatta, uning baxt-saodatini ko'rishni xohlaydi. Shu jumladan, Majnun otasi ham shunday otalardan biri. U o'g'lini bu yo'ldan qaytarishga urinadi, nasihatlar qiladi.

Yuz yil kishi umr agar tilar bil,

Kim, **sabr** kerakdir anga yuz yil.(146-bet)

Agar yuz yoshga kirmoqni tilasa unga yuz yil sabr kerakdir. Majnun otasining ushbu gaplaridan qattiq ta'sirlanadi:

Har **sabrki** seni topib nihoni

Ashkim seli oqizib oni. (147-bet)

Otasi o'ylagan sabrni uning nasihatlari ta'sirida Majnun ko'z-yoshlari selida oqizib ketadi. Majnun otasini tanimaganligi, bu ishlarning barchasiga ishq sababchi ekanligini, uning so'zlari ko'zini ochganligini aytib uzrlar so'raydi va xonadoniga qaytadi.

Dostonda Majnun yana uyini tark etish holatlari tasviriga ko'z yugurtirgan kitobxon qahramon tabiatini irodasiz, toqatsiz deb o'ylashi mumkin. Bu oshiq-ma'shuqlarning harakatlarini adabiyotshunos N. Komilov quyidagicha izohlaydi: "Ishq otashida yonish, kimyolanish Majnun uchun qismat. Navoiy shu qismatga muhtalo solikning sarguzashtini hikoya etadi, o'zi ham yonib- sel bo'lib kuylaydi. Majnun-solik, ammo u oddiy solik emas, balki "majzub"-oshiq solik. Shuning

uchun uning ustozlari ham, piri ham Ishq, shu bois u dardini nihon tutmaydi, rosmana xilvat-nishin soliklarday **sabr**-u qanoatli, batamkin, taqvodor emas. Bu sifatlar oshiqqa xos emas-da! Oshiq, to vaslga yetmaguncha toqatsizlanaveradi, uni hech narsa to'xtatib turolmaydi. Majnun yuz xil azob-u uqubat, kamsitish-xo'rliklarga chidaydi-yu, biroq hijron dardiga toqat qilolmaydi".²¹ Biz, odatda, boshiga kulfat tushgan insonlarga "sabrli bo'ling", "irodangiz mustahkam bo'lsin", deymiz. Dostonning o'ttizinchi bobida Majnun Navfal qiziga uylantirish voqeasi hikoya qilinadi. Tunda qiz o'zining sevgani borlig'ini Majnunga aytar ekan, unga chin izhori dilni, ya'ni sabr-toqat ila Layli visoliga yetishishiga tilak bildiradi:

Ham hajringda o'lmog'ay **shikibing**,

Ham vaslini aylagay nasibing.(161-bet)

Xuddi shunga o'xshash fikrni dostonning o'ttiz beshinchi bobida ham uchratamiz. Unga Laylining onasi bilan vidolashuv holati aks etgan:

To mumkin o'zungga **sabr** yor et,

Taskinu shikib ixtiyor et.

Tengri sanga **sabr** yor qilsun,

Xayling uza poydor qilsun.(191-bet)

Layli o'limi oldidagi vidolashuvda onasiga sabrli bo'lishini bot-bot uqtiradi. Ollohdan unga sabrli, qabilasi boshiga omon bo'lishini so'raydi.

Layli va Majnun ... Ular vafot etishdi. Lekin bu o'lim ular uchun jisman o'lish, haqqa yetishish yo'lidagi bir oliy darajadagi mukofot demak. Ular sevgisi faqat va faqat Olloh ishqini kuylaydi. Farhod va Shirin dostonida Farhodning Shiringa bo'lgan ham ilohiy, ham insoniy sevgisi madh etilgan bo'lsa, bu dostonida tamomila ilohiy ishq kuylanadi. Hali maktab yoshiga endigina yetgan bolalar bog'da uchrashganda Majnunda ilohiy ishq kuchi namoyon bo'ladi va butun vujudini haq ishqiga egallab hushidan ketadi. Bu ishq insoniy bo'lganda edi.

²¹ Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent : "Movarounnahr", 2009. –B. 197.

N.Komilov ta'kidlaganlaridek balog'at davrida 14-16 yoshlarda yuzaga chiqar edi.²²

Layli va Majnun dostonida yetti o'rinda sabr so'zi tilga olingan bo'lib, biz ularni o'n bir, o'nsakkiz, yigirma uch, o'ttiz, o'ttiz beshinchi boblarda ko'rishimiz mumkin. Ushbu sabrlarni Hazrat Navoiy bir o'rinda qahramonlar ruhiy holatida so'fiyona tarzda talqin etsa, bir o'rinda qahramonlari tilida kitobxonlarga nasihatlar tarzida sabrli bo'lishga chorlaydi. Biz Majnunning otasi nutqida o'g'liga nasihatlarida, Laylining so'nggi vasiyatlarida bunga amin bo'lamiz. Rojiiy Ho'qandiy:

Sabr qilmoq birla qil o'zni to'kus,

Boshga tushganin tortadur, albatta, ko'z,-²³

deganda har qanday mushkul holatda ham sabrli bo'lishni, sabr bilan to'kin bo'lishga undaydi. Xalqimizda "Boshga tushganni ko'z ko'radi" degan maqol bor. Inson umri davomida uning taqdir bitigida ertangi kunda nima yozilganligini also bilolmaydi. Layli va Majnunning ota-onalari ham farzandlarini bunday bo'lishini bilmaganlar. O'zlarining ishq uchun yaralganligini anglagan qahramonlar o'zgalarga sabr tilashni burchi deb biladi. Yaxshi va yomon kunlarda insonga faqat va faqat sabr lozim.

²² Komilov. N. Tasavvuf . – Toshkent:"Movarounnahr", 2009. –B.198.

²³ Tafakkur durdonalari. 111 Vatandosh allomalarimizning hikmatli fikrlari. –Toshkent, 2012. –B. 257.

1.4. “SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDA SABRNING IFODALANISHI

Xalqimizda “Sabrlilik-xudoning oyati, sabrsizlik shaytonning sifati” degan naql bor. Navoiy butun hayoti davomida qoldirgan durdona asarlarining ildiziga sabr hayot baxsh etgan.

Tangri taolloning ulug‘ sifatlaridan bo‘lgan va insonlarga ilohiy tufhalaridan biri sifatida in’om etilgan sabr barcha asarlarida, jumladan, “Sab’ai sayyor”da ham o‘zining to‘laqonli ifodasini topgan.

Ko‘ngildin **sabr** chun kanora qilib,

Yana surat sori nazora qilib,

Ko‘ribon chun habib suratini,

Raf’ etib hajrining kuduratini.²⁴

Yuqoridagi baytda Bahromning har doim suratga boqib, yor ishqida ado bo‘layotgani, hajr uning toqatini toq qilgani bayon etilgan.

Hajr o‘ti necha qo‘ysa jonig‘a dog‘,

Sabr qilmoq erur ul o‘t uza yog‘. (65-bet)

Ishq ichra o‘zini unutgan oshiqning yagona istagi-visol. Yor visolidan o‘zga narsani also istamaydi. Shuning uchun shoir visol yo‘lida sabr qilishni o‘tga yog‘ quyish sifatida talqin qiladi.

Ishq chun razmu kin shior etti,

Xayli **sabrimni** torumor etti.

Menda bor erdi aql ham, din ham,

G‘amda toqat, baloda tamkin ham. (87-bet)

Ma’lumki, Bahrom kuchli, irodali, shijoatli, aqlli va sabrli edi. Bu sifatlar bilan barcha muammolarni oson hal qilib, shu muvaffaqiyatga erishib kelgan. Ammo ishq isyoni oshiqning bu xislatlarini chekinishga majbur qiladi.

Avvalgi iqlimdan kelgan musofir Farrux haqidagi hikoyani aytib beradi.

²⁴ Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. – Toshkent:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. –B. 64. (Izoh: boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifada beti ko‘rsatiladi.)

Shoh Farruxni ishq o'ti butun borlig'ini egallab oldiki, hatto tushlarida ham yor visoli istagi uni qiynoqqa solib qo'ydi. Tushida yori haqida xabar topib uyg'ongach, bu tushni eslab, sabru toqati ketdi va o'rnidan tura solib Halabga qarab yo'l oldi.

Uyg'onib **sabru** toqati ketdi,

Qo'pti dog'i Halabg'a azm etti. (104-bet)

Yuqoridagi misrada Farruxning tushida yori haqida xabar topib uning mamlakatiga shoshayotganligi bayon etilgan.

Ikki-uch kun chu bo'yla kezdi yabob,

Ne anga **sabru** hush, ne xo'ru xob.(109-bet)

Yabob-xarob. Ikki-uch kun shu xilda nochorlik va notavonlik bilan kezarkan, oxiri unda aqlu hush ham, sabru toqat ham, yeyish-ichish g'ami ham-hech narsa qolmadi, hammasi bitdi. Bu dunyo tashvishlaridan holdan toygan shoh aql-u hushini butunlay yo'qotdi.

Sabrsizlik makon qurgan joydan ezgulik yiroqlashadi. Ezgulikning eng go'zal ko'rinishlaridan biri-sabr.

Oncha bazm ichra qildi ziynatu zeb,

Ki, ichar eldin oldi **sabru shikeb**. (112-bet)

Bazm shu qadar go'zal va qizg'in tus oldiki, bu shu davrada o'tirganlarning sabr-toqatini tugatgan edi. Sabr barcha ishda insonga iroda baxsh etuvchi vosita hisoblanar ekan, har qanday holatda insonni yomon ishlardan tiyilishi uchun kuch bag'ishlab turishi bilan barcha fazilatlardan ustun turadi.

Ayladi chun bu yerda nuktani bas,

Juna **sabru qarorin** oldi havas.(172-bet)

Ko'ngli **sabru qarorsiz** bo'ldi,

Nuktada ixtiyorsiz bo'ldi. (175-bet)

Oshiqlik va shohlikni bir tanga sig'dira olmagan Bahromning ruhiy holati tasviri. Shoir Bahromni shon-u shavkatli, adolatli, vatanga sodiq dovyurak bahodir sifatida tasvirlash bilan bir qatorda uning shahvoniy mayli kuchliligini, ayrim holatlarda qahr-u g'azabi aqlidan ustun kelishini ochiq oydin ifodalaydi:

Ayrib **sabr** ila qarordin,

O'yla fard o'ldi ixtiyoridin.(224-bet)

Uning ko'zidan ko'ngliga ko'chgan ishq butun borlig'iga, qon-qoniga singib o'zligidan ayiradi"

Chunki **sabru qarorsiz** bo'ldum,

Oqibat ixtiyorsiz bo'ldum.(246-bet)

Sabr-u qaroridan ayrilgan oshiq alal-oqibat izn-ixtiyorsiz bo'ladi, ixtiyori o'ziga bo'ysunmagan kishining yomon ishlarni qilmasligiga kim kafil bo'lmasligi mumkin.

Bo'lub arkoni davlati mone'

Necha kun **sabr** ila qilib qone'.(258-bet)

Diloromni oldiga oshiqayotgan shohga sabr-toqat qilishi kerakligini arkoni davlat iltimos qilishadi. Shoir ularning gapiga quloq tutadi va Diloromni o'z joyida kutishga qaror qiladi.

Shoir Erkin Vohidov:"Alisher Navoiy misralarida nafaqat go'zal tashbehlar, teran falsafiy o'ylar mavjud, balki aqilni lol etuvchi sehr, samoviy ohang bor, "²⁵ degan edi. Yuqoridagi misralarda ham bu holatni kuzatishimiz mumkin. Ma'lumki, tasavvufda ma'naviy komillikning har bir bosqichiga erishishda ham sabr ko'pri vositasini o'taydi. Dostonda ishq savdosi butun vujudini mahv qilgan oshiq holatining badiiy ifodasi tasvirlangan.

"Sab'ai sayyor" dostonida 11 o'rinda sabr so'zi tilga olinadi. Buni on uch, o'n yetti, yigirma bir, yigirma yetti, o'ttiz bir, ottiz uch, o'ttiz to'rtinchi boblarda ko'rish mumkin.

²⁵ Erkin Vohidov. Shoiru she'ru shuur. –Toshkent, 1987. 47-bet.

1.5. “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA SABR MAVZUSINING YORITILISHI

Alisher Navoiyning olamshumul ijodi asrlar davomida zamonlar elagidan tushmay, bizning istiqlool nash'idasi qalblarga surur bag'ish etib, yangi ulug'vor g'oyalar, yangicha tafakkur va ijod shakillarining kurtak yozishiga zamin hozirlayotgan ayni zamonamizda o'zining badiiy qimmatini, ilmiy ahamiyatini saqlab qolishida sabrning o'rni g'oyatda beqiyosdir. U o'z qalbida jo bo'lgan go'zal xislatlari qatorida sabrni ham o'lmas asarlar g'oyasiga singdirishga intilgan. Bu orqali mutaffakkir insonlarni hayotda duch kelgan yaxshi va yomon holatlarda sabrli bo'lishga undaydi.

“Xamsa” dostonlari ichida yakunlovchisi bo'lmish “Saddi Iskandariy” dostoni hajman eng yirik asar hisoblansa-da, tahlil jarayonida 3 o'rinda, birinchi, yigirma uch, sakson birinchi boblarida sabr so'zi tilga olinganligining guvohi bo'ldik.

Doston an'anaviy Hamd va Nat bilan boshlanadi. Hamd qismida Oллоhning sifatleri bayon etiladi:

Muhandis shiori taammul ishi,

Tahammulliq ul nav' bo'lmay kishi.

Batiyravlig'i hilm ayog'i kibi,

Garonjonlig'i **sabr** tog'i kibi.²⁶

Batiyravlig'-sekin yurish. Garonjonlig'-og'ir tabiat, imillab harakat qiluvchi, ishyoqmas. Karamingning jo'sh urishi natijasida ikkinchi ko'k qo'rg'onini ham yaratib uni birovga qarorgoh qilding. Bu yuksak qal'a muhandislarga xos bo'lgan chuqur mulohaza yuritishlikning natijasi bo'lib, ko'rgan masnadrinishin (yuqori o'ringa o'tiruvchi; taxtga o'tiruvchi)lari esa sabr bardoshda yagonadir. Ularning asta-sekinlik bilan qilgan harakatlari hilm ayog'iga, vazminliklari esa to'zimli toqqa monanddir.

²⁶ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. –Toshkent:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. –B. 7. (Izoh:boshqa misollar ham shu manbadan olinib sahifada beti ko'rsatiladi.)

Bu doston “Xamsa”ning boshqa dostonlariga qaraganda hajman katta bo‘lib, 7215 bayt (14430 misra)dan tashkil topgan. Doston 89 bo‘limdan iborat. U muqaddima, asosiy qism va xotimadan tashkil topgan. Dostonning 14 bobi muqaddima hisoblanib, u to‘rt qismga bo‘linadi:

1. Hamd, na‘t, munojot, me‘roj.
2. «Xamsa» takmilida, so‘z ta‘rifi, Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy ta‘rifi.
3. Husayn Boyqaro va Badiuzzamon madhi.
4. Tarix ilmi va qadimgi Eron shohlarining 4 taboqoti: Peshdodiylar, Kayoniylar, Ashkoniylar va Sosoniylar haqida.

Buyuk so‘z san‘atkori Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining “Hamd, na‘t, munojot, me‘roj” qismini Alloh vasfidan boshlaydi. Sabrni Tangrining go‘zal sifatlaridan biri sifatida e‘tirof etadi. Uni sabr bardoshda tengi yo‘q deya ta‘rif-tavsif etadi. “Xamsa” yozish jarayonida ijodkorlardan juda kuchli sabr talab etiladi. Ular sabr oti bilan Matonat minorasini zabt etishi kerak. Bu ishga (“Xamsa” yozishga) ne-ne shoirlar bel bog‘lamadilar. Bu qutlug‘ yo‘l mashaqqatlariga sabr-bardoshining oqizligi tufayli ular manzilning oxiriga yetib borolmadilar. Sanoqli ijodkorlarga barcha qiyinchiliklarni yengib, barcha zahmatlarga sabr-bardosh jilovini mahkam tutgan holda bu muqaddas burchni mahorat bilan ado etdilar. Hazrat Navoiy esa bu ishni mahorat cho‘qqisiga olib chiqdi.

Dostonning yigirma uchinchi bobi: “Iskandar ishlarining tafsilini ijmol bila deyilmak va ul ijmolning mujmalotin tafsil qilmoq va Doroning rasuli anga oltun bayza tilay kelib, po‘lat nayzadek itik so‘zlar javob topib bormoq va ul sinon lam‘asining barqi aning xirmani sabrig‘a o‘t solmoq va kunjit bila go‘y va chavgon yibormagi va Iskandar ul chavgon bila go‘y urub kunjudni qushlar termagi” (92-bet) Iskandarning Doroga xiroj to‘lamagani uning sabrini tugatib jahl otiga mindiradi.

Insoniyat yaralibdiki, yaqinidan ayrilgan kishiga sabr tilaydi. Bonu uchun Iskandar o‘z jigari bo‘lmasa-da, lekin ma‘nan unga farzanddir. Farzandidan

ayrilgan onaga yetti hakimning ta'ziya bildirishadi. Hakim Buqrot unga quyidagicha so'z boshlaydi:

Chu **sabring** kamandin Haq etti uzun,

Anga har dam o'lsun uzunluk fuzun.(389-bet)

Og'irlilik va sabrlilikning butun sifatleri unda mavjud ekanligini aytib, sabr arqoni Olloh unda uzun qilib yaratganligini va bu arqon uzunligi yanada ortishini tilaydi. Albatta, sabr tushunchasi ushbu so'zning tilga olinishi bilan belgilanadigan hodisa emas. Mir Alisher Navoiy ulug', benazir buyuk qalam sohibiki, alloma asarlaridagi qahromonlarining butun hayotini shunday mahorat bilan yoritadiki kitobxonda umr, hayot, borliq, olam haqida tasavvurlar hosil qilish bilan birgalikda sabrning inson hayotidagi o'rni haqida falsafiy fikrlar yuritishga va ulardan ma'lum bir xulosalarni chiqarishga undaydi. Shoh Iskandar jahongirligi madh etilgan dostonda uning hayoti davomidagi adolatli siyosat yuritishi tahsinga sazovor bo'lsa, shaxsiyatidagi sabrsizlik va qanoatsizligi uning juda ko'plab o'lkalarni bosib olishiga va 33 yoshida vafot etishiga sababchi bo'lmaganmikin? Olamda uzoq umr ko'rish ham sabrsiz insonlarga nasib etmaydi. Iskandar yer yuzini egallasa-da, lekin bu bilan kifoyalanmay dengizni ham mahv etishni xohlaydi. Uning bu qanoatsizligi umri zavoliga aylanadi. Iskandar taqdiri misolida Ollo sabrsiz va qanoatsiz insonlarni also qo'llamasligini ko'rishimiz mumkin.

1.6 “LISON UT –TAYR”DA SABR XUSUSIYATINING YORITILISHI

Alisher Navoiy o‘zining mashhur asari bo‘lmish “Lison ut-tayr” da sabrga juda ko‘p o‘rinlarda alohida urg‘u berib o‘tadi. Asarning butun mazmun mohiyati sabr asosida kurilgan desak also mubolag‘a bo‘lmaydi. Navoiy islom falsafasi dengiziga tasavvuf daryosi, tasavvuf daryosiga naqshbandiya irmog‘i orqali suzayotgan bir kema yanglig‘ ijd etdi, shuning uchun bobokalonimiz umr bo‘yi ana shu o‘ziga eng yaqin irmoq suvlaridan ko‘p ichgan.²⁷ Uning mashhur falsafiy dostoni bo‘lmish “Lison ut-tayr”da tasavvuf ta‘limotining yorqin namunasini ko‘rishimiz mumkin. Chunki qushlar yetti vodiyni bosib Alloh jamoliga erishishi uchun qanchadan-qancha mashaqqatga duch keladi. Bu azob uqubatni yengish uchun ularda, avvalo, sabr-qanoat mujassam bo‘lishi kerak. Shundagina ular o‘zlari istagan maqsadga- Alloh jamoliga erishadilar.

Bu safarda ranjlardur ta`miya

Ko`nglinggizga etsa ondin tavsiya²⁸.

Qushlar safar paytida ranj-u alamlarga, jabr-u sitamlarga, turfa kulfat-u ofatlarga ro‘baro‘ bo‘lishadi. Ammo ularning barchasida ham sabr-toqat, matonat kuchli emas edi. Bu qusuri tufayli ularga bu manzil malol kela boshlaydi:

Bo‘ldilar yo‘l ranjidan farsudahol,

Har biriga qo‘ydi yuz behad malol.(51-bet)

Asarda safar qiyinchiliklariga chiday olmagan qushlar yo‘lboshlovchi Hududga o‘z uzrlarini ayta boshlaydi. Bulbul guldan uzoqda sabr unga begona bo‘lgani, ko‘nglini ham, jonini ham hatto butun borlig‘ini ham gulning ishqigallaganini aytadi. Ko‘nglida boshqa ishq bo‘la turib, Allohga oshiqilk da‘vo qilolmasligini bildiradi. Alloh vasliga yetmoq uchun komilikka erishgan bo‘lmog‘i lozim. Komillikka erishishning asosiy sharti sabrdir.

Dedi Bulbul:- “K-ey bu majma`ga dalil

Men bo‘libmen gul havosidin zalil.

²⁷ Sultonmurod Olim. Naqshband va Navoiy-Toshkent: “O‘qituvchi”, 1996.-B-107.

²⁸ Alisher Navoiy Lison ut-tayr. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1991. -B-44. (Izoh:boshqa misollar ham shu manbadan olinib sahifada beti ko‘rsatiladi.)

Oydin oyru oshiq-u devonamen,
Aql hush-u **sabrdin** begonamen.
Onsizin yo‘q **sabr** ila toqat manga,
Qayda yoro, chekkali furqat manga. (58-bet)

“Lison ut –tayr”da keltirilgan quyidagi hikoyatga sabrsizlik qoralanadi. Unda bayon qilinishicha bir pahlavon chohgohda va kechqurun uy tomondan ovqat yeb, hatto mast filga ham shikast yetkaza oladi. Mamlakatda xarobalik yuz berib, aholi o‘z yerlarini tashlab ketishga majbur bo‘ladi. Taom yemagan pahlavon safarning uchinchi kuni biyobonda jon taslim qiladi. Yosh bolalar va hatto ikki bukilgan qariyalar ham sabr-toqat bilan obod manzilga yetib kelib, maqsadlariga erishdi:

Qat` etib yo‘lni yoyoq atfol ham,
Har taraf ikki bukulg‘on zol ham.(74-bet)

“Lison ut-tayr”ning Shayx San‘onga bag‘ishlangan hikoyatda ham sabr haqidagi mulohazalarini ko‘ramiz. Unda Shayx San‘on bir tushni qayta-qayta ko‘rgan shayxning sabr-u qarori tugaydi. Uning dardiga chora qiladigan, bag‘ri porasiga davo beradigan narsa- bu sabrdir.

Necha tun bir tush anga ko‘rguzdilar,
Rishtai **sabr-u qarorin** uzdilar. (89-bet)

Shayxning butun borlig‘ini, aqli-u hushini ishq egallaydi. Hatto gavdasida tob-u toqat qolmagan oshiq, ravon bo‘lishga o‘zida kuch topolmaydi. Bu holatni shoir quyidagi misralarda mahorat bilan tasvirlaydi:

Shayx jismidin borib ul yerda tob,
Ko‘nglini **betoqat** aylab istirob. (91-bet)

Shayx San‘on ishq kuyida aql-u hushidan ayrilgan g‘arib devona holatiga tushadi.

Uning dardiga malham bo‘ladigan, ishq o‘tidan kuygan bag‘ri porasiga davo beradigan, bunday damda unda madad beradigan narsa faqat -sabr.

Men g‘arib-u oshiqu devonaman,
Hushu aql-u **sabrdin** begonaman.(106-bet)

“Lisonut tayr”dagi yana bir hikoyatda ham sabr talqini uchraydi. Unda aytilishicha, haj sari ketayotgan Asma`iy (mashhur arab tilshunos olimi, to`liq ismi Abu Said Abdumalik) hordiq chiqargani chashma boshida o`tirganda u yerda quyidagi xatga ko`zi tushdi:

Kimsa bo`lsa shiq zori naylasun?

Bo`lmasa **sabr-u** qarori naylasun? (196-bet)

Asma`iy qo`liga qalam olib davot olib, bu xat tagiga shunday deb yozdi:

“Kim bu varta ichra istak poklik,

Qilmasin fosh etkoli beboklik”. (196-bet)

Ya`ni, “Kimki, bu halokatli girdobga tushib, undan pok chiqmoqchi bo`lsa, o`zi tushgan yo`ldan qo`rqmasin”. Ushbu so`zlar zamirida ham sabrga ishora mavjud. Chunki har bir xayrli ishning oxirgi nuqtasiga sabr orqali erishiladi.

Yo`lovchi bu fikrlarni yozib ketgach, ertasi yana o`sha manzilga kelib, ushbu so`zlarni ko`radi:

Lek ul shavqi muhabbat shiddati-

Tez o`lib, toq o`lsa oning **toqati**. (196-bet)

Ya`ni, “Agar ozurda jon oshiq o`zi pok bo`lsa-yu yana ishqini yashirin saqlasa, lekin uning qalbidagi muhabbatning shiddati tez bo`lib, uning toqati toq bo`lsa hamda vaslga ehtiyoj sezsa, u paytda nima qilsin? Agar bu ishning ilojini topmasa naylasun?”.

Asma`iy yana quyidagi so`zlarni toshga bitadi.

Foniyo, ishq ichra foniyo bo`yla bo`l,

Bo`lmasa **sabr-u shikebing**, bo`yla o`l. (198-bet)

“Ey Foniyo! Ishq ichra foniyo bo`lish yo`li ana shunday bo`ladi. Agar sabr-u toqating tugagan bo`lsa, xuddi shu kabi jon taslim qil.” Mazkur misralarda **sabr**, **shikeb** kabi sinonim so`zlar qator kelib, ma`no kuchaytirish va badiiy barkamollikka erishishga vosita vazifasini o`tagan. Shu bilan tasvir tiniqligini ham ta`minlashga xizmat qilgan. [**Shikib**] f. Sabr, chidam, to`zim; o`z-o`ziga shikib bermak-o`z-o`ziga sabr bermoq; [**Beshikib**]-Sabrsiz; toqatsiz; sarosima;

[**Noshikib**]-Besabr. [**Shikibo**]-f. Sarbli, chidamli. Shikibolig‘ Sabrlilik, chidamlilik.²⁹ (696)

“Lison ut-tayr” dagi quyidagi hikoyatida ham sabrning yuksak namunasini ko‘rishimiz mumkin. Unda jahonni zabt etgan bir podshohning husnda tengi yo‘q go‘zal qizi haqida so‘z boradi. Davron ichra toq bo‘lgan go‘zal qizning ishqida necha davlatmand kishilar, taxt egalari yonib ado bo‘lsalar-da, ammo visol hech birlariga nasib etmaydi.

Bir kecha qizning tushiga go‘zal bir yigit kirib, uning ko‘ngliga g‘ulg‘ula soldi. Kecha-yu kunduz oromi yo‘qolib, ishqning asiriga aylandi. Ko‘ngil mulkidan sabr-u qarori ketdi:

Ittifoqo bir kecha tush ko‘rdi ul,

Paykarekim **toqatig`a** urdi yo‘l (211-bet)

Ushbu misralarda ham sabr va shikeb sinonim so‘zlari bir o‘rinda qo‘llangan. Bu doston tilining jozibadorligini oshirishga, fikrni bo‘rttirib ifodalashga, qahramonlar qiyofasini yorqin tasvirlashga, shoirning munosabatini yorqin bo‘yoqlarda ifodalashga xizmat qilgan. Ishq o‘tida dili pora bo‘lgan go‘zal qiz holati tasvirida bu yaqqol ko‘zga tashlanadi. Hajr dardida oshuftahol qiz ko‘ngliga taskin berish uchun sabr-toqatli bo‘lish istagi quyidagicha tasvirlanadi:

Har taraf boqib ko‘ngil taskinig`a,

Yo‘l tilab **sabr-u shikeb** oyinig`a. (212-bet)

Ana shu kunlarning birida shoh xizmatkorlari orasida tushda ko‘rgan yigitga nogahon ko‘zi tushadi. Ko‘ngli ishq o‘tiga nishon bo‘lgan qizning majruh tanasiga ham hajr rahna sola boshladi. Unda xush ham, sabr ham qolmadi, o‘zi ham ular bilan birga ketdi:

Hushu **sabri** qolmadi o‘z holida,

O‘zi ham bordi alar dunbolida. (212-bet)

Qizning g‘ami tobora kuchayib bormoqda, chunki ishqini oshkor qilsa otasini benomus qilishi mumkin. Shunday ulug‘ shohning benomus bo‘lishiga qizning o‘zi ham toqat qila olmaydi:

²⁹ Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. –Toshkent: Gafur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1972 . –B. 696

Shahni benomusliqqa **toqatim-**

Yo‘q uchun bu ishda ortar shiddatim. (215-bet)

Oy yuzli dilbar ishq to‘fonida beqaror bo‘ldi. U o‘z dardiga chora topishga kirishdi. Chunki uning ishqiy yashirib bo‘lmaydigan darajaga yetgan edi.

Uning shodlik va g‘amli doimiy hamdami bo‘ladigan ikki yaqin mahrami bor edi. Ular har ishning chorasini topishga juda usta edi. Qizlarning har ikkalasi ham ajoyib san‘atkor va sehrigar edi. Hatto ishq bilan jang qilishga ham yarar edilar.

Har biriga reva afsunu fireb,

Ishq birla jang qilguncha **shikeb**. (213-bet)

Qizning ko‘nglida vaslga umid paydo qilib, sabr va chiqamli bo‘lishni uqtiradilar.

Sen **shikebo** bo‘l, ham bir necha kun-

Har doim o‘hu nola birla chekma un.(215-bet)

Parivash vaslga umid paydo qilib, sabr va chidamli bo‘lishga ahd qildi. Chunki undan boshqa chorasi ham yo‘q edi.

Vaslg‘a chun bo‘ldi ummedi husul,

Mahvash **sabru shikeb** anglab qabul.(215-bet)

Ko‘ngliga sabrli bo‘lishdek ezgu ishlarni jo qilishni istagan go‘zal bu otashin tuyg‘u qarshisida toqatim yetarmikan degan shubhalar girdobiga ham g‘arq bo‘ladi. Allohdan bunday o‘tli ishqni hech kimsaga nasib etmaslikni tilaydi.

Gar desam xomush o‘lay, **toqatmu** bor,

O‘zni zabt aylay desam, quvvatmu bor!(219-bet)

“Lison ut-tayr” da qushlar tanlagan mashaqqatli yo‘l nihoyatda sabr-bardoshli bo‘lishni talab qilardi. Chunki komillik solikdan birinchi navbatda sabrning oily darajadagi ko‘rinishini talab qiladi.

Ne ucharg‘a yor o‘lub quvvatlari,

Ne qo‘narg‘a dard aro **toqatlari** (231-bet)

Xulosa qilib aytganda, Hazrat Navoiy dostonlarini o‘qish, o‘rganish asosida shoir ilgari surgan insoniy xislatlarning oily darajalaridan biri bo‘lmish sabrni har

jihatdan o'rganish va tahlil qilish shoir asarlarining tub mohiyatini anglashga, ulug' shoir ijodidagi yangi-yangi qirralarni kashf etishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

II BOB

SHOIR SHE'RIYATIDA SABR BILAN BOG'LIQ FIKRLAR

“She’r shoir yashagan davr va zamonning o’zgaruvchan va o’tkinchi havosini emas, u tug’ilib voyaga yetgan zaminning nuriday toza, hayotbaxsh nafasini aks ettirmog’i kerak. Fuzuliy “Manim she’rim oltin emas, kumush emas, inju va la’l emas, tuproqdur...” deganda naqadar haq edi. She’r qiymatini hech qanday moddiy boylikka tenglashtirib bo’lmasligining bosh sababi ham ana shunda. O’zini tanigan shoirning na zar, na tillo, na amal-u obro’ga sotilmasligi xuddi shundan. Shoirning shoirligini ko’rsatuvchi shaffof ko’zgu-bu she’r. She’rdan boshqa hech nima shoirdan yodgor qolmaydi”.³⁰

Darhaqiqat, navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul ta’kidlaganlaridek, shoirning shoirligi, adabiyot olamida tutgan o’rni uning she’r yozish mahorati bilan belgilanadigan bir maydonki, bu maydonda faqat va faqat ko’ksida iste’dod uchqunlari yonib, o’zgalarning-da qalblaridagi quvonch-u shodliklarini dard-alamlarini lovullab alanga oldiradigan, kitobxonni zavq-shavqqa to’ldiruvchi, g’amga botiruvchi, uni o’ylantirib xayolot dengizida suzishga imkon beradigan ming-minglab yuraklardan misralari ila joy oladigan g’oliblarning-da maydoni bu. Bu maydonga kirib g’oliblik bayrog’ini mana besh asrdirki mangu barhayot yashayotgan, o’zbek xalqining “shams ul millat”i hisoblanmish Alisher Navoiyning she’riyat sohasidagi xizmatini so’z bilan aslo ifodalab bo’lmas.

Ulug’ yozuvchilardan biri: “Iste’dodni hech bir ta’rifi yo’qdirki, uni na qolipga solib, na biror-bir tushuncha bilan ifodalab bo’ladi”, - degan ekan. Hazrat Navoiyning ham g’azalchilik borasidagi mahoratini biror bir qolip asosida ta’riflay olmaymiz.

“Alisher Navoiy ijodiy merosini baland tog’ deb tasavvur qiladigan bo’lsak, bu tog’ bizning ortimizda emas, hamisha qarshimizda, biz intiladigan, cho’qqilariga havas bilan qaraydigan, u sari yuksalishni orzu qiladigan tog’”.³¹

Shoir ijodi o’zining xalqchilligi, takrorlanmasligi, rang-barangligi bilan bizni o’ziga tortuvchi bir “magnit maydonni” hosil qiladiki, bu maydon ta’siridan

³⁰ Alisher Navoiy. Shoh baytlar. –Toshkent: “Fan”, 2007. –B. 4.

³¹ Ibrohim Haqqul. Zanjirband sher qoshida. –Toshkent: “Yulduzcha”, 1989. –B. 6.

hech qachon chiqishga imkon topolmaysiz. Siz maydon ta'sirida ulkan tog' cho'qqisini zabt etish uchun qanchalik shijoat bilan shahdam qadamlar bilan harakat qilar ekansiz, bu tog' cho'qqisi shu darajada yuqori ekanligini his qilasiz. Va bu his sizni yana va yana sabr va idrok ila shoir asarlarini mutolaa qilishga chorlaydi. Eng muhim jihati shundaki, bu tog' zabt etib bo'lmascho'qqiga ega bo'lsa-da, lekin unga intilish, uning bor bo'y- bastini his qilish, bu tog' havosi-yu, turli gullar iforidan mast bo'lish zavqini surish - yagona maqsadi shu tog'ni zabt etishga otlangan yo'lovchi bahramand bo'lishi mumkin bo'lgan nekbin tuyg'ular yig'indisidir. Bu tog'ni zabt etishga otlangan yo'lovchilarning ko'pchiligi tog'ni faqat tomosha qilish bilan cheklanib qolib unga chiqishga jasorati yetmaydi. Bu yo'lovchining sabr va matonatiga bog'liqdir. Agar bu sabr yo'lovchida shu tog'ning toshlaridek metin bo'lsa, albatta, bu yo'lda hech bir to'sqinlikni pisand etmay manzilga yetib borish borishi mumkin.

“Xazoyin ul-maoniy” devonidagi she'rlarni tahlil qilar ekanmiz, ularda uchraydigan sabr so'zining juda ko'plab ma'nolarda qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin.

Bu to'rt devonni o'z ichiga olgan asardagi har bir she'rda olam-olam ma'no-mazmun mujassamlashgan. Garchi shoir ularni inson umriga qiyos sifatida olgan bo'lsa-da asarning har bir devonida sabrning turfa ma'nodagi shakllarini ko'rishimiz mumkin.

Navoiy she'rlarida qo'llangan sabr tushunchasi quyidagi ma'noviy guruhlarga bo'lib tahlil qilishimiz mumkin:

1. Sabrning Alloh xislatlaridan biri sifatidagi talqini.
2. Sabr-Alloh tomonidan berilgan buyuk ne'mat.
3. Shoirning yorga yetishish yo'lidagi toqatsizlik holati tasviridagi sabr.
4. Oshiq qalbida sabrning ishq iztiroblariga bardosh berishi yo'lida ko'nglida makon qurganligi tasviri.
5. O'z-o'ziga sabrli bo'lishi uchun pand –nasihat o'rinlarida.
6. Oshiq sabr-qarorini olgan ma'shuqaga shikoyat tarzidagi talqini.

7. Tangridan yorga rahm, o'ziga sabr tilashi yo'lida.
8. Sabrsizligi uchun o'z-o'zini tanqid qilish.
9. Kitobxonga sabrli bo'lishi kerakligi xususida o'g'itlari talqini.
10. Yorga hajr azobida o'zining sabrliligini ta'kidlash.
11. Qur'oni Karim oyatlarida uchraydigan sabrga ishora o'rinlarida.

Asarda:

1. "G'aroyib us-sig'ar"da 23, "Navodir ush-shabob"da 26, "Badoe' ul-vasat"da 49, "Favoyid ul-kibar"da 24 ta o'rinda -jami 122 o'rinda sabr so'zi tilga olinadi.

1. Sabrning Alloh xislatlaridan biri sifatidagi talqini.

Sabr ... barcha ezgu sifatlarni o'z qa'riga jo aylagan ulkan ummondir. Shu sifatsiz hayotning mazmuni uning bor go'zalligi-yu inson hali anglab yetmagan asl haqiqat bulog'ining zilol suvidan to'yib bahramand bo'lish mumkin emas.

Sabr... ha, bu insoniy xislatlari bog'idagi eng qumloq va tashlandiq joyidan o'sib chiqqan, ne-ne zahmatlarni boshdan kechirib ko'kka bo'y cho'zgan gul. U bog'dagi gullarning eng sarasi va eng go'zalidirki, to'rt faslning qor-u to'fonlariga, jazirama issig'i-yu yomg'irlarga dosh bera oladigan nozik xilqatdir. Shu sababdan ham Hazrat Navoiy har bir devonidagi she'rlarida sabrga murojaat etgan bo'lsalar ajab emas.

Sabur ismi ila qilsang tajalliy,

Qilib Namrudg'a yuz ming mudaro. (25-bet)³²

Ushbu g'azal shoirning Hamd g'azallariga kiradi. "Hamd" so'zi shoir asarlari lug'atida maqtov, madh, deb berilgan. Olloh ta'rif va tavsif etilgan g'azallar hamd g'azallardir. Adabiyotshunos olim Ziyoda G'afforova Hamd g'azallar haqida fikr yuritir ekan, shunday yozadi: "Bu g'azallardagi murojaat etiladigan va ta'riflanadigan asosiy qahramon-bevosita Xudoning o'zi. Lirik qahramon bir banda sifatida Yaratuvchisiga o'z qalb tuyg'ularini oshkor qiladi".³³

³² Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. 1-devon. –Toshkent: "Tamaddun" 2011. –B. 117. (Izoh: biz barcha she'rlarni shu devondagi asarlar asosida tahlil qilgan holda asar nomi va betini sahifada ko'rsatdik.)

³³ G'afforova. Z. Navoiyning Hamd va Na't g'azallari. –Toshkent: "Ma'naviyat", 2001. –B. 8.

Bunday gʻazallar mustaqillik yillarigacha kam tadqiq qilingan. Chunki shoir asarlaridagi bu turdagi gʻazallar nashr qilinmagan.

Manga atfol otqan toshu **sabrim** kisharin koʻrkim

Meni devonagʻa ul togʻdek boʻlmish, bu homundek.

(“Gʻaroyib us-sigʻar” 357-bet)

Ashk ila Navoiy su berur, **sabr** niholin,

Bilmaski, ani ohim oʻtidin qurutubmen.

(“Gʻaroyib us-sigʻar” 491-bet)

Hajringda mening **sabrima** juz nuqson yoʻq,

Koʻnglum aro gʻayri nolavu afgʻon yoʻq.

Jonimgʻa hayot umidi xud imkon yoʻq,

Yoʻq-yoʻq, yoʻq, sabr yoʻq, koʻngul yoʻq, jon yoʻq.

(“Gʻaroyib us-sigʻar” 747-bet)

Ushbu keltirilgan baytda Navoiy tadrij san'ati orqali sabr timsolini qanchalik kuchli ekanligini koʻrsatadi. Tadrij (arab-bosqichma-bosqich ilgarilash, yuksalish)-mumtoz sheʼriyatdagi badiiy usullardan biri; sheʼrda, asosan, gʻazallarda muayyan obraz (yoki tushuncha)ni oʻxshatishlar vositasi bilan darajama-daraja rivojlantirib borishdan iborat.³⁴ Ayriliq hamda hijronga boʻlgan sabrimda umuman nuqson yoʻq. Koʻnglimda nolaning oʻzi yoʻq, Jonim uchun hayotdan umid yoʻq deya taʼriflaydi. Bu fikrlarni umumiy xulosalagan holda shoir sabr yoʻq jismda koʻngil ham, jon ham yoʻq ekanligini taʼkidlaydi. Demakki, sabr inson uchun tiriklikdir.

Shoir yana bir baytida ana shu fikrlarni davom ettiradi:

Vahki ashkim jolasidin topti ofat bir necha,

Sabr tuxmin mazraʼi jon ichrakim qildim nasaq.

(“Badoeʼ ul-vasat” 327-bet)

Lirik qahramon koʻz yoshi ofatidan sabri bir necha bor ofatga uchraganligini, ammo oʻz sabrini jonining ichiga ekanligini taʼkidlaydi. Ushbu bayt mazmunidan shu narsa ravshanki, sabr uchun kelayotgan har qanday ofat bu

³⁴Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-tom. Toshkent. 2004, -B. 224.

jon uchun kelgan ofat hisoblanadi. Shoir lirikasida ko'pchilik o'rinlarda sabr bilan birga ashk-ko'z yoshi birgalikda ifodalangan. Bir baytda shoir sabrning ozi azob ekanligi, ko'pi esa iztirobga sababchi ekanligi haqida mulohazayuritadi. Bu iztirob oraqsidan kelayotgan ko'z yoshi sabr uchun balo, tortayotgan hijron esa alamli olov ekanligini bayon qiladi:

Sabr ozidin azob, anduh ko'pidin iztirob,

Ashkdin seli balo, oh o'tidin har dam alam.

(“Badoe’ ul-vasat” 400-bet)

Aylamon ma'mur aqlu **sabr**ila ko'nglum uyin,

Chun meni buzdi, men ul vayronni obod aylamon.

(“Badoe’ ul-vasat” 491-bet)

Imom G'azzoliyning ta'kidlashicha, sabr uch narsa orqali kamolotga yetadi. 1. Ilm. 2. Hol. 3. Amal. Sabr qiluvchilar uch toifadir: 1. Mutassabbir-ya'ni zo'rma-zo'rakilik ila sabr qiluvchi, sabrda besabrlikka yon beruvchi. 2. Sobir-sabrli, sabriga sodiq kishi. Sabbor – o'ta sabrli.

Sobirlik uch maqomdan iborat: nafs va shavhatlarni tark etish; qazoyu qadarga rozi bo'lish; Allohdan kelgan har bir narsani xushnudlik va ishq ila qabul qilish. Sabr deganda avom yo'qchilik, qiyinchilik va kulfatlarga bardosh ko'rsatishni anglaydi. Aslida sabrning eng qiyini shodu xurramlik, omad, boy-badavlatlik asnosidagi sabr hisoblanadi. Bu haqda Imom G'azzoliy shunday deganlar: “...Yo'qsillikdagi sabr bir jihatdan majburiy erur. Biroq boy-badavlatlikdagi sabr haqiqiy sabrdir...”. Sabrda so'z va amal zarracha bo'lsin bir-biridan yiroqlashmasligi va ajralmasligi zarur.³⁵

2. Sabr-Alloh tomonidan berilgan buyuk ne'mat.

Hajru dardu **sabrsizlig'** keldilar qotil bari,

Lek bu fan ichra bordur barchaga ustod ishq.

(“Favoyid ul-kibar” 320-bet)³⁶

³⁵ Alisher Navoiy. Asarlar. 10-jildlik. 8-jild. – Toshkent: “O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. 654-bet.

³⁶ Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. . 4-devon. – Toshkent: “Tamaddun”, 2011. (Izoh: biz barcha she'rlarni shu devondagi asarlar asosida tahlil qilgan holda asar nomi va betini sahifada ko'rsatdik.)

Ohimdin uchi, **sabrim** agarchi qatiq edi,
G'am tog'ini qo'ngarur emish ishq sarsari
(“Favoyid ul-kibar” 653-bet)

Komillikka yetishish, Haqqa talpingan ishq ko'nglida bino qurgan oshiq juda mashaqqatli yo'lni bosib o'tar ekan, unga faqat va faqat Alloh tomonidan hadya etilgan aziz ne'mat sabr-madadkor bo'ladi.

3. Shoirning yorga yetishish yo'lidagi toqatsizlik holati tasviridagi sabr.

Ishqiy g'azallarda aksariyat hollarda, ishq dardiga muhtalo bo'lgan oshiq holati tasvirlarining yorga yetishish yo'lidagi sabrsizligi tasvirida “sabr tugamoq” iborasi qo'llaniladi. Bunday talqinni Mir Alisher Navoiy ijodida ham juda ko'p o'rinlarda uchratamiz. Shoir g'azallarida bu ibora bir o'rinda “sabr qolmadi” deb qo'llansa, bir o'rinda “sabrim uyin vayron qilur”, yana bir o'rinda esa “to'lg'adi sabrim” va “ko'nglu uyidin sabr mato'ini supirdi” tarzida qo'llanganini ko'ramiz. “G'aroyib us-sig'ar” dan keltirilgan mazkur g'azalda ham sabr bilan bog'liq bu ibora go'zal ma'shuqa hajrida kuygan oshiq holatini badiiy tasvirini yorqinroq ifodalash uchun qo'llangan:

Mahvasho, sarvqadi, lolaruxo, siyimtano,
Chorakim, qolmadi **sabrim** g'ami hajringda yana.
(“G'aroyib us-sig'ar” 60-bet)

Vahki, ko'nglum g'ussasi har lahza qasdi jon qilur,
Hajrim anduhi buzug' **sabrim** uyin vayron qilur.
(“G'aroyib us-sig'ar” 117-bet)

Xirman **sabrimni** qo'zg'ab, ko'z yoshimni sochti hajr,
Uylakim har yon sochilg'ay dona, xirmon qo'zg'ab.
(“Navodir ush-shabob” 57-bet)³⁷

Ishq aro topsam malolat **sabrdin** yo'q hayrati,

³⁷ Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. 2-devon. – Toshkent: “Tamaddun” 2011. (Izoh: barcha she'rlar shu devondagi asarlar asosida tahlil qilgan holda, asar nomi va beti sahifada ko'rsatiladi.)

Darddin bemorg'a parhez erur ko'proq malol.

(“Navodir ush-shabob” 381-bet)

Tolg'adi **sabrim**, qo'lin zohir qilib dildor kuch,

Garchi nozukdur va lekin bor anga bisyor kuch.

(“Badoe' ul-vasat” 103-bet)³⁸

Bu g'azalda Haszrat Navoiy sabrimni yor sinamoqchi bo'lib, meni qiynadi, lekin o'zi dalda berib, ma'nan yordam qo'lini cho'zdi. Bu misradan tasavvufiy ma'no anglashiladi. Alloh bizni mashaqqatli sinovlarda sinaydi va bu sinash chog'ida yordam qo'lini ham cho'zadi. Yuqoridagi baytda ham yorning oshiqqa yordam berishi deganda shoir Yaratganni nazarda tutgan. Ikkinchi misrada yorning qo'li o'ta nozik bo'lsa-da, oshiqqa qudratli kuch ato etadi. Majoziy ma'noda esa, Alloh tomonidan beriladigan sabrning cheksiz kuch-qudratga ega ekanligi bayon etiladi. Insonda birgina shu xislatning mavjudligi har qanday sinovni yengib o'tishga kuchli qalqon bo'la olishi aks etgan.

Jism uyi vayron bo'lib, **sabru** qarou aqlu xush,

Qolmadi bir, emdi ahli ishq yag'mosi nedur!

(“Badoe' ul-vasat” 158-bet)

Ko'zga ko'nglum to bo'ldi ayon ul zulf birlan yuz,

Ko'zumdin uyqu uchti tun, ko'nguldin **sabr** ham kundur.

(“Badoe' ul-vasat” 218-bet)

Ko'ngli uyidin **sabr** mato'ini supirdi,

Bechora Navoiykim, erur dilbari farrosh.

(“Badoe' ul-vasat” 252-bet)

Shikebu, sabruhush itmish, qaroru aqlu jon ketmish,

Ne g'am, gar bo'lsa ul oromi ruh, ul quti jon paydo.

(“Favoyid ul-kibar” 37-bet)

³⁸Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. 3-devon.—Toshkent: “Tamaddun”, 2011. (Izoh: barcha she'rlar shu devondagi asarlar asosida tahlil qilgan holda, asar nomi va beti sahifada ko'rsatiladi.)

Hajrida **sabru** qarorim yo‘qtur,
G‘amda yuz nolai zorim yo‘qtur.

(“Favoyid ul-kibar” 715-bet)

4. Oshiq qalbidasabrning ishq iztiroblariga bardosh berishi yo‘lida ko‘nglida makon qurganligi tasviri

Mir Alisher Navoiy lirikasida ichki ruhiy holatini shunday badiiy o‘xshatishlar bilan bayon etadiki, natijada bu g‘azallar siz-u bizning xotiramizda bir umrga o‘chmas iz qoldiradi. Quyidagi g‘azali xuddi shunday g‘azallar sirasiga kiradi:

Sabr ko‘nglumda, ko‘ngul ul oyda, ul oy kemada,
Vahki, borib telmurub ko‘z, mungrayib jonim qolur.

(“G‘aroyib us-sig‘ar” 190-bet)

Ushbu g‘azalda lirik qahramon ko‘nglida sabr borligi, yor vasliga yetishish orzusi bilan yashayotganligi, yorga ko‘ngil bergan bu qahramonning mahvash yo‘lida ko‘zlari termulib umri o‘tayotganligi, lekin barcha-barchasiga sabot bilan bardosh berayotganligi, oshiqning yor visoliga yetishish yo‘lidagi cheksiz iztirobli holati aks etgan. G‘azaldagi kema so‘zi zohiriy va botiniy ma’nolarga ega. Uni o‘z ma’nosida yorni uzoqlashtiruvchi timsol. Botiniy ma’noda esa Alloh makoni.

Hajr o‘ti to o‘rtadi ko‘nglumni aqlu hushu **sabr**,
Ittilar har yon qarorg‘on ro‘zg‘orimni ko‘rib.

(“Navodir ush-shabob” 59-bet)

Ey ko‘ngulkim, **sabr** tog‘in makon etting, oqibat,
Tundsayli ishq ul tog‘ingni homun qildilo.

(“Favoyid ul-kibar” 34-bet)

Sabru toqat nechakim ko‘rguzayin,
Buyla furqatda ne yanlig‘ tuzayin

(“Favoyid ul-kibar” 711-bet)

5.O‘z-o‘ziga sabrli bo‘lishi uchun pand-nasihat qilishi.

Yuz balo kelsa boshingg‘a **sabr** qilg‘il, ey ko‘ngul,

Yo xaloyiq ixtilotin qil Navoiyvor bas.

(“Navodir ush-shabob” 243-bet)

Shoir haqiqiy oshiq sifatida o‘z –o‘ziga sabrli bo‘lish kerkligi xususida nasihat qiladi. Lirik qahramon shu darajada oshiqki, unga sabr bobida biror oshiq teng kela olmaydi:

Navoiy demakim, hijronida **sabr** ixtiyor etgil,

Bu ishda yo‘q emish beixtiyor men kibi hargiz.

(“Badoe’ ul-vasat” 215-bet)

Ko‘ngulga har necha **sabru** qaror pandi berurmen,

Birini, voyki, bishqarmayin, birini unutmish.

(“Badoe’ ul-vasat” 256-bet)

6.Oshiq sabr-qarorini olgan ma’shuqaga shikoyat tarzidagi talqini.

Hajrdin dod istadim, deding, **sabur** o‘l, voy kim,

Toza dog‘img‘a yonar o‘t birla aylarsen iloj.

(“G‘aroyib us-sig‘ar” 114-bet)

Yor vasliga yetishish yo‘lida oshiqning azoblanishi, yorning esa oshiqqa tasalli berishi bayon etilgan.Yorni ko‘rmoqlik uchun oshiqning azob chekishi, yorning esa oshiqqa e’tiborsizligi aks etgan.Oshiqning yor hajrida yonayotgan ko‘ngliga faqat ma’shuqa davo bo‘ladi.

Garchi **sabrim** uyi yanlig‘ aylading vayron meni,

Doim, yo rabki, husnuning mulkidek obod bo‘l.

(“G‘aroyib us-sig‘ar” 405-bet)

Navoiy g‘azallaridan tashqari bu kabi g‘oyalarni muxammaslarida ham bayon etadi.

Toki chekti o‘qu yo qasdimg‘a ul mujgonu qosh,

Ayladi paykonlari har sori bag‘rimni xarosh,

Pardayi **sabru** salomat yoyibon, ey bag‘ri tosh,

Yoshurub erdim bag‘ir chokini vahkim, qildi fosh,

Har taraf ko‘zdin tarashshuh aylagan qon oqibat.

(“G‘aroyib us-sig‘ar” 677-bet muxammas)

Ko‘nglum buzulub **sabru** xirad bog‘ladilar raxt,
Chun mulkni buzdung, elni dog‘i ko‘churdung.

(“Navodir ush-shabob 349-bet)

Ishq ichra nechukkim menga yo‘q **sabru tahammul**,
Husn ahlida yo‘q sen kibi bemehru tarahhum

(“Navodir ush-shabob 440-bet)

Shuni alohida ta’kidlash joizki, tahammul, shikeb so‘zlari ham sabr so‘zining o‘zaro ma’nodoshlari sanaladi. Tahammul [ar-toqat, sabr, chidam] Tahammul aylamak,- chidamoq, og‘irlikni ko‘tarmoq, sabr qilmoq.³⁹ Navoiy g‘azallarida tahammul, shikeb, sabr so‘zlarining bir baytda yonma-yon kelishi ma’noni kuchaytirishga, badiiylikni oshirishga, g‘oyaviy yetuklikka erishishda uslubiy vosita sifatida xizmat qilgan.

Ko‘ngul birla qaroru **sabru** hushu aqlim olmish sen,
Chu etting, jonni taslim aylakim budurur qolg‘on

(“Navodir ush-shabob 449-bet)

Tabibo, yanas**abrdin** dema so‘z,
Ki bu sharbatingdin zarardur manga.

(“Badoe’ ul-vasat” 252-bet)

Sabrim uyini yiqsa qading naxli, tong emas,
Hargiz sutun kim ayladi navas niholdin?

(“Badoe’ ul-vasat” 495-bet)

7. Tangridan yorga rahm, o‘ziga sabr tilashi yo‘lida.

Yorga ko‘ngil bergan oshiq har qanday jabr-u jafolarga tayyor ekan, bu muhabbat tufayli sabr qilishdan o‘zga yo‘l yo‘qligi, Allohga sevikli yorining

³⁹Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti”, 1972. -B. 606.

bemehr, jafokash ekanligidan nolib unga rahm-shafqat qilishi, bu yoʻlda oʻziga yanada sabrliroq boʻlishi uchun kuch ato etishini soʻraydi:

Ey Navoiy, yor zulmigʻa ne chora, gʻayri **sabr**,
Kimsa netkay **sabr** qilmay zolim oʻlsa dilbari.

(“Gʻaroyib us-sigʻar” 661-bet)

Ey ibodat xayli, pandim berguncha Tengri uchun,
Yorga rahmu manga **sabru tahammul** istangiz.
Aqlu sabru zudu taqvo, jonima, qilmang gʻulu,
Chiqti mast ul shoʻx, turmay emdi har yon butrangiz.

(“Favoyid ul-kibar” 218-bet)

8. Sabrsizligi uchun oʻz-oʻzini tanqid qilish.

Ey Navoiy, zulmidin derminki ishqin tark etay,
To nazardin gʻoyib oʻldi, yoʻq yanas**abru shikeb**.

(“Gʻaroyib us-sigʻar” 70-bet)

Lirik qahramon gʻazal oxirida yakunlovchi, xulosalovchi fikrni bildiradi. Yor shu darajada zulm qildiki, oshiq ishq uning tanasini tark etishini xohlaydi. Oʻziga yorning sirli qarashi nasib etmaganligidan toqatsizlangan qahramon bu holini tanqid qiladi.

Vah, netib **sabru** shekibim mulki vayron boʻlmasun,
Ikki koʻzdin Dajlayu Jayhundek oqib ikki nahr.

(“Badoeʻ ul-vasat” 147-bet)

Eyki dersiz ishq aro **sabring** uyin obod qil,
Mundoq yetguncha hayotim qasru bunyodin buzung.

(“Badoeʻ ul-vasat” 348-bet)

Sabrli boʻl deya nasihat beruvchilarga shoir ishq bilan sabr uyini obod qilsa-da bu olamda jisman yashashi mumkinligini, maʼnan esa ishqsiz yashay olmasligini taʼkidlaydi. Bu olamda yor ishqsiz yashay olmasligi bois shoir oʻzini toʻxtovsiz taftish qiladi.

Bu bahona birla chunkim jonni sadqang ayladim,
Aqlu hushu **sabr** naqdin ham nisoring aylayin.

(“Badoe’ ul-vasat” 386-bet)

Dam-badam shavqum sanga ko‘prakdur, ammo **sabrim** oz,
Garchi sen bedodni ko‘p, mehrni etkasen.

(“Badoe’ ul-vasat” 501-bet)

9.Kitobxonga sabrli bo‘lishi kerakligi xususida o‘gitlari talqini.

Kimsa mendek ishq aro **besabru** orom o‘lmasun,
Yor anga bir sen kibi badmehru xudkom o‘lmasun.

(“Navodir ush-shabob” 488-bet)

Hech kim men kabi ishq bobida besabr bo‘lmasin, sevgan yori esa sen kabi
o‘z maqsadini, o‘zini o‘ylovchi xudbin shaxs bo‘lmasligini tilaydi:

Kimki istar nomae **sabru** salomat boqmasun,
Xo‘blar xolu xatidin nuqtau e‘robg‘a.

(“Badoe’ ul-vasat” 567-bet)

Dardi hijron qadi jonom ayladi bil, soqiyo,
Hajridin jonimg‘adur har lahza yuz yil, soqiyo,
Uyla dard ichra erur xud **sabr** mushkil, soqiyo,
Ushbu dardimg‘a davo jome karam qil, soqiyo,
Derki sabr etkil hakimi aql, qilg‘il, soqiyo,
Bir qadah birla xalos oning davosidin meni.

(“Badoe’ ul-vasat” 667-bet musaddas)

Kim firoq o‘tiga **sabr** etsa Navoiy yanlig‘,
Otashin gullar anga bo‘lg‘usi ul o‘ttin fosh.

(“Favoyid ul-kibar” 260-bet)

Hazrat Navoiy lirikasida kitobxonga shunchaki pand-nasihat qilmaydi, balki,
o‘z fikrlarini asosli dalillar asosida shunday mahorat ila bayon etadiki, biz
o‘quvchilar shoir aytmqchi bo‘lgan fikrlarining naqadar haq ekanligining guvohi

bo‘lamiz. Bu jihatdan shoirning lirikasi uning nasriy asarlarida ilgari surgan g‘oyalari bilan naqadar chambarchas bog‘liq ekanligini anglash aslo qiyin emas.

Gar Ayyub sabr etti turluk baloda,
Vale ko‘rmadi hajr shomi balosin.

(Favoyid ul-kibar” 456-bet)

10. Yorga hajr azobida o‘zining sabrliligini ta’kidlash.

Aqlu **sabru** hush itib, ko‘nglumda qoldi dog‘lar,
Karvon ko‘chsa, qolur o‘tlar yeri manzil aro.

(“Badoe’ ul-vasat” 22-bet)

Dardi hajrim arz qilsam, derki, **sabret**, voykim,
Zahr ila muhlik marazg‘a ko‘rma duk hargiz iloj.

(“Badoe’ ul-vasat” 99-bet)

Ey ko‘ngul, sayli sirishk oni tubidin ko‘ngarur,
Nechakim **sabr** uyining tarhini bunyod ayla.

(“Badoe’ ul-vasat” 565-bet)

Sabr toshidin ko‘ngulga ko‘p bino tarh ayladim,
Ko‘z yoshim seli ko‘ngardi barchani bunyodidin.

(“Favoyid ul-kibar” 470-bet)

Ko‘nglimga sabrni shunday joyladimki, bu sabrim xuddi toshdan qurilgan binoday mustahkam joylashdi. Ko‘z yoshim selidan hatto toshlar ko‘kardi. Bu misrada sabrning toshga o‘xshatilishi bejiz emas. Shu qadar sabr qildimki, sabrimni toshga o‘xshatsam bu toshlardan bino qursa bo‘ladi. Sinovlarga chidam, matonat bilan sabr qildimki, hatto ko‘z yoshlarim selidan ya’ni ko‘z yoshimning nihoyatda ko‘pligidan bu toshlar ham ko‘kardi.

11. Qur’oni karim oyatlaridagi sabrga ishora qiluvchi bayt.

Hajr Kan’onida sha’nimda o‘qir **sabr** oyatin,
Ulki, hajr oyatlari nozildur aning shonida.

(“Badoe’ ul-vasat” 28-bet)

Maozalloh siz, ey ishq muhabbat, ne balodursiz,
Ki ko'nglumdin olib **sabru** shikeb, o'tlar soladursiz
(“Badoe’ ul-vasat” 210-bet)

Buyurmag'il yan**sabr**, ey tabib, Tengri uchun,
Ki ushbu sharbat emas emdi sozvor manga.
(“Favoyid ul-kibar” 16-bet)

Ma'lumki, g'azalda uch obraz: yor(mahbub), oshiq, o'zga(ag'yor, raqib) mavjud. Shoir she'rlarida faqat ikki kishining, ya'ni yor va oshiq sabrini ko'rish mumkin. Quyidagi baytda yorning sabrliligi tilga olingan:

Chu naqdi **sabr** taroj aylading, ko'nglumga o't solding,
Bu nav' o'z kishvariga shoh bedod etmadi hargiz.
(“Badoe’ ul-vasat” 224-bet)

Shoir oshiq sabrini g'azallaridan tashqari tarji' bandlarida ham bayon etadi.

Bir lahzada buzdi sayli ashkim,
Har tarhiki **sabr** qildi bunyod.

Har ruq'aki yozdi **sabrila** hush,
Sovug' nafasimdin o'ldi barbod.

(“Badoe’ ul-vasat” 671-bet Tarji' band)

III BOB

NAVOIYNING NASRIY ASARLARIDA SABR BILAN BOG'LIQ FIKRLAR

3.1. “Mahbub ul - qulub”da bu atama talqini

Alisher Navoiyning aksariyat asarlarida sabr mavzusi keng o'rin egallaydi. “Mahbub ul-qulub”, “Majolis un-nafois”, “Nasoyim ul-muhabbat” kabi nasriy asarlari shular jumlasidandir. Mutafakkirning umr tajribasi, hayot haqidagi fikrlarining qissadan- hissa tarzidagi xulosasi sifatida e'tirof etiladigan “Mahbub ul-qulub” asari 3 qismdan iborat bo'lib, 2-qismi asosan axloqiy masalalarga bag'ishlanadi. 10 bobdan iborat bu qismda shoir yaxshi fe'llar va yomon xislatlar to'g'risida fikr yuritir ekan, bevosita kitobxonga yaxshi xislatlarga ega bo'lish, yomon illatlardan o'zini tiyishini uqtiradi. Navoiy yaxshi fazilat sifatida tavba, qanoat, tavoze odob kabilarni keltirir ekan, sabr mavzusiga asarning 3-bobida alohida to'xtalib o'tadi.


Navoiy kishi qiyinchiliklarga bardosh qilishi, ruhiy va jismoniy azoblarni sabot bilan yengishi sabr ekanligi va bu xislat insonni baxtga yetkazishini ta'kidlaydi. Shoir yozadi: “Sabr achchiq, ammo foyda beruvchi; u qattiq ammo ziyon-zahmatni daf etuvchi. Qaysi baxtsiz sabr etagini tutgan bo'lsa, u oxiri o'z murodiga yetadi; qaysi bir giriftor ko'ngil sabr tugunini bo'shatmagan bo'lsa, uning baxt tuguni ochiladi.”⁴⁰ Darhaqiqat, sabr qilish inson uchun eng mashaqqatli ishdir. Shuning uchun sabrli insonlarni yengib bo'lmaydi. Ayniqsa uning sabri diniy va dunyoviy ilmlar bilan mustahkamlangan bo'lsa.

Ma'lumki, Navoiy asarlarida komil inson muammosi markaziy o'rinni egallaydi. “Mahbub ul-qulub” asarida keltirilgan sifatlardan anglash mumkinki, insoni komil bo'lish uchun shaxs albatta, sabrli bo'lishi lozim. Sabr insonning nafsini tiyishga undaydi. Nafs deganda yemoq-ichmoqlikdan tashqari barcha salbiy illatlar nazarda tutiladi. Sabrsiz inson – johil inson.

Mir Alisher Navoiy sabrni biz kutmagan, o'ylamagan, keng xayolot dunyomizga keltirmagan shunday narsalarga mengzaydiki, bu o'xshatishlar

⁴⁰Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – B. 16. . (Izoh: boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifada beti ko'rsatiladi.)

inson xotirasida bir umrga muhrlanib qoladi. Sabr bilan bog‘liq talqinni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:



Navoiy asarlarini mutolaa qilganimizda ko‘pincha shoir aytmoqchi bo‘lgan fikr uning qahramonlari xarakteriga singdirib yuborilganligining guvohi bo‘lamiz. Asarda keltirilgan hikoyat qahramoni garchi tuhmat tufayli zindonga tushib, zolimlar qo‘lida kaltaklanib, qiynoqlarga solinsa-da, jim turadi. Shoir uning holatini: “Kaltak zarbidan uning butun vujudi jarohat bo‘ldi; hamma a‘zosining

terisi shilindi. Uning a'zoyi badani shunday dabdala qilingan ediki, oqqan qon u maydonni lolazor qildi. Shunda ham, u bechora mutlaqo dam urmadi va iqrar so'zni tilga keltirmadi.”(47-bet) deya ta'riflaydi.

Mavlono Jaloliddin Rumiy o'zining hikmatlaridan birida:

Gar kishi egnida yangi to'n erur,

Sabr-u bardosh birla yetmish to'nga ul,-⁴¹

deb yozadi. Navoiy hikoyatidagi qahramon Rumiy hazratlari ta'riflagan kishi holatiga yetishadi. Uning kaltaklanganligini ko'rib turgan qiz yoniga kelib yaralariga malham qo'yadi. Yigit sabri tufayli tasavvur qilib bo'lmas davlatga va buyuk baxtga muyassar bo'ladi. Navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul “Tafakkur” jurnalida chop yetgan “Sabr – iroda ishi” nomli maqolasida e'tiborli fikrlarni bayon yetadi. Abulkarim Qusharining fikrlariga asoslanib, quyidagi mulohazalarni bildiradi: “Ulardan biri-obidlarning sabri, ikkinchisi-oshiqlarning sabri. Obidlar sabrining eng go'zal ko'rinishi – sabrning shikoyatdan butunlay forig' bo'lishi. Oshiqlarning eng go'zal sabri - iztirobdan xoliligi”⁴². “Mahbub ul-qulub” asarida sabrning har ikkala turi ham nazariy, ham amaliy jihatdan to'liq yoritilganligining guvohi bo'lamiz. Shoir ushbu hikoyat orqali baxt insonga qiyinchiliklar, sabr-toqat, ko'z yoshlar-u zahmatlar evaziga beriladigan ulug' ne'mat ekanligini yana bir karra dalillab bergan.

Kimki, bir shiddat aro sabru tahammul ayladi,

Baxt aning nishini no'shu xorini gul ayladi.

Ya'ni: Kimki biror qiyinchilikda sabru chidam ko'rsatsa,

Baxt uning zahrini bolu, tikanini gulga aylantiradi. (47-bet)


Asarning “Turli foydali maslahatlar va maqollar” deb nomlangan 3-qismida turli maslahatlar, hikmatli so'zlar, tanbehlar o'rin olgan bo'lib, ular qisqaligi, mazmundorligi bilan har bir shaxsni o'zini tarbiyalashga, botiniy olamidagi “men”ini topishga da'vat etadi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki,

⁴¹Mavlono Jaloliddin Rumiy. Hikmatlar” –Toshkent, 2007. –B.54.

⁴²Haqqulov I. “Sabr-iroda ishi”, “Tafakkur” jurnali. 2009, 4-son. –B. 74-75.

asarning 2-bobida shoir sabr xususidagi qarashlarini 3-bobdagi tanbehlarda davom ettiradi. Hamma narsaning o'ng va chap, yorug' va qora, yaxshi va yomon tomoni bo'lgani kabi sabrga qarama-qarshi, zid tushuncha bu - sabrsizlik, shoshqaloqlikdir. Navoiy bu haqda shunday yozadi: "Sabr bilan ko'p mushkul ishlar oson ko'chadi. Ishda shoshgan ko'p toyiladi; ko'p toyilgan ko'p yiqiladi. Ishda oshiqmoq – yosh bolalar ishi; sabr bilan ish qilmoq tajribali, yoshi katta odamlar ishidir."(78-bet)

Navoiy asarlarida sabr so'zigagina to'xtalib o'tmaydi, balki u bilan bog'liq qanot tushunchasini o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida alohida-alohida sifatlar ekanligini bizga aniq qilib ko'rsatib bergan.



“Qanoatli darvishning qattiq noni tamagir shohning noz-ne’mat to’la dasturxonidan yaxshiroqdir. Qanoatga odatlangan faqirning yovg’on umochi-olg’ir boyning novvotu halvosidan totliroqdir.

Shoh uldirki-olmaydi-yu, beradi, gado uldirki-sochmaydi-yu, teradi. Har kim qanoatga odatlangan bo’lsa, shohlik-gadolik tashvishini bilmaydi. Garchi tirikchilik uyi doim tor, bu haqda qancha mubolag’a qilsang, o’rni bor. Qanoat bir qo’rg’onki, unga kirsang, nafsning g’alvasidan qutilasan. Qanoat bir cho’qqiki, unga chiqsang, do’st-dushmanga muhtojlikdan xalos bo’lasan. Qanoat-xokisorlig’dirki, natijasi yuksaklik; muhtojlikki, foydasi ehtiyojsizlik. Qanoat-ekindir, urug’i boylik; daraxtdir-mevasi muhtojtsizlik; maydir-achchiq, lekin borar manzili sevintiruvchidir.

Qanoatda qancha rohat va farog’at bo’lsa, uni aksi bo’lgan tamada shuncha razillik va uqubat bor.” (45-bet)

Tasavvufda ham qanoatli bo’lish ta’kidlanadi. Husayin Voiz Koshifiy “Futuvvatnomai Sultoniyyoxud javonmardlik tariqati” asarining uchinchi fasli “Muridning odobi va uning shartlari”da murid balog’atga yetgan bo’lishi, oqil bo’lishi, muslim bo’lishi, talabgor bo’lishi va boshqa shu kabi o’nta sifatga ega bo’lishi kerakligini yozadi. Shu sifatlar qatorida qanoatni ham keltiradi va yozadi: “To’qqizinchidan, qanoatli bo’lsin, ya’ni faqat zaruriy ehtiyojga yarasha narsalar (yeb-ichish, kiyinish) bilan qanoatlansin, ortiqchasini talab qilmasin, zero ortiqcha talablar kishini tariqat shug’lidan chetlashtiradi.”⁴³

Navoiy asarda qanoatning aksi bo’lgan tamagirlik va nokaslikni ikki yoqimsiz egizakka o’xshatadi. Shoir tamagirning biror nima olishga o’chligini, yeb to’ymasning taomga ochko’zligiga o’xshatadi. Ijodkorning bu fikrlariga hamohang hikoyatlardan bir nechasini Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy” asarinig uchinchi bobida uchratish mumkin. “Qanoat fazilatini aytur”deb nomlangan ushbu bobda sayohatga chiqqan biri zaif ikkinchisi qaviy bo’lgan kishilarning qismati haqida fikr yuritiladi. Ular josus sifatida tuhmat qilinib

⁴³Husayin Voiz Koshifiy. “Futuvvatnomai Sultoniyyoxud javonmardlik tariqati”, N. Komilov tarjimasi.–Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. -B. 26.

zindonga tushib qolishadi. Aybsiz ekanligi aniqlangach ularni ozod qilgan soqchilar bo'lgan voqeadan hayratlanishadi. Hakim esa buni shunday izhlaydi: "Ul biri ko'p yer edi, ochliqqa toqat keltirmadi, o'ldi. Dag'i bu biri oz yer edi, odatincha sabr etib salomat qoldi".⁴⁴ Asardagi tanbehlarda shoirning alohida ahamiyatga ega fikrlarini ko'rishimiz mumkin.

54. Tanbeh

Sabr bilan ko'p mushkul ishlar oson ko'chadi. Ishda shoshgan ko'p toyiladi; ko'p toyilgan ko'p yiqiladi.

Ishda oshiqmoq-yosh bolalar ishi; sabr bilan ish qilmoq tajribali yoshi katta odamlar ishidir. (78-bet)

Bayt:

Kimki oshiqmoqni xayol qilmasa,
Yaproqni ipak qiladi, chechak bargidan bol oladi. (79-bet)

Har kimsaki, aylamas oshuqmoqni xayol,
Yaproqni ipak qilur, chechak bargini bol. (105-bet)

Kimki, bir shiddat aro sabru tahammul ayladi,
Baxt aning nishini no'shu xorini gul ayladi. (100-bet)

Qanoat-bir chashmadurki, olgan bilan uning suvi qurimaydi; u bir xazinadurki, undagi boylik sochilgan bilan kamaymaydi. U bir ekinzorki, urug'i izzat va shavqat hosilini beradi.

Umuman, Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulb" asarida sabr uning hayotiy va tasavvufiy ma'nolari bayon etilgan.

⁴⁴ Sayfi Saroyi. "Gulistoni bit-turkiy" Uch bulbul gulshani. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1986. –B. 237

3. 2. “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida sabr

“Tarixi anbiyo va hukamo” asarida sabr uch o‘rinda tilga olinadi, ularni biz 558, 599, 613 betlarda ko‘rishimiz mumkin. Yuqorida sabr timsoli bo‘lgan payg‘ambar haqida ma‘lumot keltirgan edik. Navoiy dostonlarida, she‘riyatida sabr timsoli hisoblangan Ayyub payg‘ambarni tilga olgan bo‘lsa-da, “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida bu payg‘ambar haqida to‘liq ma‘lumot beradi. Adabiyotshunos Aziz Qayumov ijodkorning bu asradagi Ayyub payg‘ambar haqidagi fikrlarini ilmiy jihatdan asoslaydi.

“Tengri taolo inoyat qilib anga sihat yiborib, Jabroil (a.s) keldi va ilkin tutub qo‘pordi. Va tamom qurtlar tanidin tushti. Va iki jonibidin iki bulog‘ paydo bo‘ladi va Jabroil (a.s) muborak jismini ul suvlarg‘a g‘usl berib, barcha jarohatlari butti. Va Rahimaning pokligiga tanug‘luq berib, mashhurdirkim, yuz supurgu yig‘ochni bir-biriga bog‘lab, Rahima uchasig‘a urub, ahd uxdasidii chiqti. Va Ayyub(a.s)g‘a Tengri taolo zoye’ bo‘lg‘on amvolidin ortuqroq yana karomat qildi. Ba’zi debdurlarkim, avlodin ham tirguzdi, ba’zi bir ondurkim, yana avlod berdi va aning eviga ba’zi debdurlarkim, oltun chugurtka yog‘di. Va ba’zi aning manzilin Shomdadur va ba’zi Xuroson viloyatida Rozi Mashhadda debdurlar. Va muddati nubuvvatida uch kishi anga iymon kelturdilar va baliyatida murtad bo‘ldilar, sihotdin so‘ngra Ro‘mg‘a bordi. Ho‘milki, ulug‘roq o‘g‘li erdi, vasiy qilib olamdin o‘tti. Umri bobida ixtilof ko‘p uchun bitilmadi.”

Ayub payg‘ambar haqidagi fikrlariga yakun sifatida ushbu baytni keltiradi.

She‘r:

Besabr ulus garchi jahondin ketti,

Ayyub sabur dog‘i ketmay netti.⁴⁵(559-bet)

“Tarixi anbiyo va hukamo” asarida sabr talqini payg‘ambarlar, aziz avliyolar, anbiyolar hayot yo‘li qilgan ezgu amallari misolida yorqin ifodalanadi. Ular bu yuksak maqomga, albatta, sabr va yana sabr tufayligina erishgan. Toat-u ibodat

⁴⁵Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. Asarlar.10 jildlik. 8-jild –Toshkent:” O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi”, 2011. (Izoh: boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifada beti ko‘rsatiladi.)

jarayonida Allohga eng avvalo shukronalik tilab, ezgulik yo‘lidagi amallarida sabr so‘raydi. Asardan o‘rin olgan sabr timsoli sifatida e‘tirof etiladigan payg‘ambarimiz Ayub alayhissalomning hayoti, boshidan o‘tkazgan ayanchli sinovlar va bu sinovlarga shunchalik bardosh berib, hattoki bu dard-sitamlarga ham beadam shukronalik bilan chidaganligi tasvirini keltirar ekan, tuganmas va behad ulkan bir baxtga faqat-faqat sabr orqali erishish mumkin ekanligini kitobxonga havola etgan.

Fishog‘urs hakim. Luqmoni hakimning shogirdidir. Ba‘zi debdurlar, Gushtasb zamonida erdi. Musiqiy ilmi aning voze‘idir. Andin burun bu fanni tadvin qilg‘on kishi ma‘lum emas. Va soz ham aning muxtari‘idur va kamolda ta‘rifdin mustag‘niy. Aning so‘zlaridindurkim, kishi o‘z madhin desa, chin do‘g‘i bo‘lsa nopisanddur va o‘tkonlar bila ont ichmak yolg‘on nishonasidur va musibatqa sabr qilmoq shamotat qilg‘uchining musibati. (599-bet)

“Tarixi anbiyo va hukamo” asarida sabr talqini Luqmoni hakimning shogirdi Fishog‘urs hakim hayoti misolida ham e‘tirof etiladi. Musiqa ilmi bilan shug‘ullangan Fishog‘urs hakim to‘g‘risida bayon qilingan bobda ham sabr tushunchasining oliy namunasini ko‘rishimiz mumkin. O‘zidan oldin musiqa ilmi bilan jiddiy shug‘ullangan olim bo‘lmagan. Unda keltirilishicha ul zot kamolda ta‘rifga ojiz. Asarda har kishi o‘z madhini desa, nopisand va otganlar yodi bilan ont ichmakni yolg‘on nishonasi, musibatqa sabr qilmoq birovlarining boshiga tushgan musibatdan sevinuvchilarning musibati sifatida tasvirlanadi.

Luhrosib binni Arund Kaykovusning inisining o‘g‘lidir. Dor ul-mulki Balx erdi. Olamning ko‘prak mulkini ochti. Ammo chun otalari saltanat qilmaydur erdilar va Kayxusravning o‘g‘li yo‘q jihatidin mulkni anga berganda, elga qotig‘ keldi. Chun ul bu ishni angladi, el bila andoq borishtikim, barcha ani tiladilar. Mulk ochmog‘ining jihati ul bo‘ldi. Ikki o‘g‘li bor erdi-Gushtasb bilan Zarrin. Anga bir sahva tushtikim, o‘z o‘g‘lonlaridin Kaykovus atboig‘a yaxshiroq mamolik berdi. Bu jihatdin Gushtasb, chun bag‘oyat rashid va bahodir kishi erdi, tahammul qila olmay, andin yomonlab Rung‘a bordi.(613-bet)

Balxda yashagan Kaykovus inisining o'g'li Luhrosib binni Arund hayoti misolida sabrning yuksak darajadagi talqini "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida mahorat bilan tasvirlangan. Sabrsizlik bu asarda jiddiy qoralanadi. Unda sabr so'zining muqobili tahammul qo'llangan.

3.3. "Majolis un-nafois" asarida mazkur tushuncha ifodasi

"Sulton Husayn va Alisher Navoiy do'stliklari haqida shunchalik ko'p manbalarda bitilganki, bu ibratomuz fazilat sohiblari munosabatlari afsonalarga qorishib ketgandir. Bu ikki buyuk zot biri fozilligu donolik, ikkinchisi qilich va siyosat bilan XV asrning ikkinchi yarmida Xuroson mamlakati va temuriylar saltanati shon-shuhratini yetti iqlimga mashhuru manzur etganlar"⁴⁶. Haqiqatdan ham, bu ikki shaxsning o'zaro inoqligi asrlar osha zamon va makon chegaralarini yuvib xalq qalbida hurmatga sazovor bo'lmoqda. Aslini olganda Navoiy shoir bo'lsa-da Husayn Boyqaroga o'z fikrini har qanday holda ochiq ayta olgan marifatparvar siymodir. Xususan, "Majolis un-nafois" asarining yettinchi majlisi temuriylarga, sakkizinchi majlisi esa Husayn Boyqaroga bag'ishlangan bo'lib bu majlisda shoh eng avvalo, sabr-toqatli bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiyning har bir asarida sabrga alohida urg'u beriladi. U har bir ishda, har bir ezgu amal yo'lidagi qiyinchiliklarga, avvalo, sabr tufayli erishilishini uqtiradi:

Sakkizinchi majlisda quyidagilarni o'qiymiz:

Sabrsiz ko'nglining ishq va jununin va notavon holining dardu shavqi bir-biridin fuzunin devanavor degoni va majnunkirdor ado qilg'oni:

Sabrsiz ko'nglumba boqsam ortadur ishqu junun,

Notavon jonimni ko'rsam, dard ila shavqi fuzun.⁴⁷(435-bet)

Bu matla' dag'i o'z holi sharhidakim, anvo'i baliyat bir ishq jihatidin bir-birining ustida bo'lmish bo'lg'ay. Bu matla' voqe' bo'lubturkim:

⁴⁶Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. "Manbalarda qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili", –Toshkent: "Akademnashr", 2011. -B. 109.

⁴⁷ Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Asarlar. 10 jildlik. 9-jild. –Toshkent: "O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi G'afur G'ulom nomidagi nashriot-matbaa ijodiy uyi",2011 yil. (Izoh:boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifada beti ko'rsatiladi.)

Yo‘q damekim, telbalardek ul parig‘a zor eman,
Sabru hushumdin judo, dardu balog‘a yor eman.(436-bet)

Bu misralarda hazrat ishq yo‘lida sabru hushidan ayrildan oshiq holatini tasvirlash barobarida sabrsiz inson dardu baloga duchor bo‘lishini yorqin bo‘yoqlarda tasvirlab beradi.

Ul Hazratning xossa ixtirotidin bu to‘rt she‘rdurkim, “o‘zgacha” lafzin radif qilib, qofiyalari har qaysining o‘zgacha voqe’ bo‘lubdur. Har qaysining latofati bir-biridin ortug‘roq tushubtur va alardin biri buldurkim:

G‘am eli aymish binosin qildi vayron o‘zgacha,
Hushu sabrim mulkini yer birla yakson o‘zgacha. (440-bet)

Navoiyning mazkur baytida ham sabr talqinining go‘zal namunasini ko‘rishimiz mumkin. Sabr mulki insonning qo‘lidan ketgan makonda g‘am uyi barpo bo‘lishini ta‘kidlaydi.

Ko‘ngliga sabrdin o‘zga chora ishqida bilib sabr qila olmog‘onidin bechoralig‘ izhori qilibdur va bade’ ado topibdur va g‘arib muaddo bo‘lubtur:

Chorai ishq nedur, juz sabru mahzun ko‘nglima,
Chun qila olmas, qiling bir chora mahzun ko‘ngluma.(441-bet)

Har bir mushkul ish ko‘ngilga mahzunlik solganda eng so‘nggi choraga faqat sabr bilan erishiladi.

Gardun shikoyatidakim, ofiyatin rasvolig‘ bila badal qilmish bo‘lg‘ay, va bu matla’ nishotfarso va anduh afzo voqe’ bo‘lubturkim”:

Ey ko‘ngul, gardun baliyat toshini yog‘durdilo,
Har taraf sabrim uyin devorini sindurdilo.(441-bet)

Bahor fasli bo‘lib aysh guli ochilg‘oni va g‘am xazoni yelidin sabri xirmoni sovrulg‘oni bobida deyilibdur:

Navbahor o‘ldi, ochilmas, vahki, aymish gulshani,
G‘am xazoni yelidin sovruldi sabrim xirmani(443-bet)

Bu baytlarda Navoiy ko‘ngliga ish bahori g‘unchalagan oshiq, yorning e‘tiborsizligi sabrini tugatganligi holati tasviri beriladi. “Majolis un-nafois” asarida

yetti o‘rinda sabr tilga olinadi. Ularni asarning 435, 436, 440, 441, 443 sahifalarida ko‘rishimiz mumkin.

Umuman olganda, Alisher Navoiy barcha asarlarida bo‘lganidek “Majolis un-nafois” asarida ham sabr talqiniga alohida o‘rin ajratadi. Sabr-bu barcha mushkilotlar va shodliklarning oxirgi nuqtasi, eng muhim belgisi.

3.4. “Munshaot” dagi talqin

Alisher Navoiyning ushbu asariga 88 ta xat jamlangan bo‘lib, bu xatlarda shoir o‘zining yaqin insonlariga va yor-do‘stlariga yuborgan xatlari jamlangan. Shuni ta’kidlash joizki, shoirning barcha xatlari o‘z egalarini topmagan. Navoiy xatlarni asarning boshlanmasida insho tarzida yozilganligini keltirgan. Xatlar tilini tushunish ancha murakkab bo‘lib, keyingi nashrlarda til xususiyatlari ancha soddalashtirilganligi aytiladi. Asar tilining soddalashtirilganligi haqida yozgan taqrizchilar o‘ta soddalashtirilgan xatlar shoir asarlarining badiiyligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ta’kidlashadi. Navoiyning asarida qo‘llanilgan sabr asosan shoirning ichki kechinmalarini yoritishda, uning o‘y-hayollarining badiiy mahoratini aks et tirishda qo‘llanilgan. Shoirning o‘z tuyg‘ularidagi beqarorlikni yozadi. “Munshaot” asarida besh o‘rinda sabrni ko‘rishimiz mumkin. Ular 14, 19, 21, 22, 27 betlardan joy olgan.

“Bizning hozirgi axloqiy qadriyalarimizda hayotni sevish go‘yo “insonga hurmat” sifatida qaraladi. Ammo o‘zini bilmagan holda uning chigal zanjiriga botib qolamiz. Gap shundaki, yaxshi yashash bizning nazarimizda moddiy ma’murlikdir. O‘zimizga shariat yaratish uchun har xil nopok yo‘llardan borishdan ham toymaymiz. Biroq so‘fiy, barcha ne‘matni Haqdan so‘raydi. Uning e’tiqodicha, sabr va tavakkul tuganmas boylik. Sabr-uning insoniylik qadrini saqlasa, tavakkul quvvat bag‘ishlaydi. Negaki, sabr oromda odam har xil noinsoniy yo‘llarga kirib ketishidan saqlanadi”.⁴⁸

“Munshaot” asaridagi xatlardan birida: “Har soya harakatidan tanda harorat va har qadah tovushidan ko‘ngilda betoqatlik. Chunki, halok etadigan darajadagi

⁴⁸Jo‘rayev Z. “G‘oyiblar xaylidan yongan chiroqlar”. -Toshkent “O‘zbekiston” 1994, -B. 59.

intizorlikdan jon og‘ziga keldi va sabr-toqati ixtiyori qo‘lidan beixtiyorlarcha ketdi. Aytmoqchi bo‘lgan tarqoq so‘zlar tugadi”⁴⁹ yozilgan bo‘lib bu bevosita shoirning ichki ruhiy holati aksi sanaladi. Umuman olganda, Navoiy nasriy asrlarida sabr haqidagi fikr-mulohazalarga alohida to‘xtalganligini ko‘rishimiz mumkin.

⁴⁹ Alisher Navoiy. Munshaot. –Toshkent: “Ma’naviyat”, 2001. -B. 14.

XULOSA

Ulug' shoir va mutafakkir Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning boy ijodiy merosi o'z g'oyaviy mazmuni va mundarijasiga ko'ra umumbashariydir.

Asrlar osha yangi ma'no qirralarining kashf etilishi bilan Sharq mumtoz adabiyoti, jumladan ulug' so'z san'atkori Alisher Navoiy ijodi mangulikka daxldorlik kasb etmoqda. Uning ko'lamini kengligi va davrlar o'tishi bilan yangicha talqinlarga asos bo'la olishi bu ijodiy merosga qayta-qayta murojaat qilishni taqazo qilayotir. Navoiyshunoslik ilmi mamlakatimiz o'z istiqboliga erishgach, shoir merosini yangicha o'rganish borasida qator yutuqlarni qo'lga kiritmoqda.

Binobarin, u yuksak insoniy ideallarning benazir kuychisi, daho so'z san'atkori tarzida jahonga mashhur. Hazratning o'lmas asarlari o'zining teran mazmuni, ibratomoz ma'nosi, baland badiiy mahorati bilan uyg'unlashib ketgan. Bu mushtaraklikning sababi buyuk shoirning o'z xalqi orzu-umidlarini, jahoniy ezgulik, go'zallikni badiiy mahorat va poetik tarovat bilan kuylaganida, deb bilamiz. Bu olijanob xususiyat benazir shoirning durdona lirikasidan tortib, monumental, ya'ni yirik janrlarni rivojlantirishga bo'lgan sa'y-qadamlarigacha singib ketgan va, mana, besh asrki, dunyo badiiy tafakkur qasrini bezab keladi. Buningdek ulug'vorlik Sharq tamaddunida Firdavsiy, Xusrav Dehlaviy, Hofiz, Sa'diy, Jomiy, Nizomiy, Zahiriddin Boburlarga nasib etganligini faxr bilan esga olamiz.

Alisher Navoiy adabiyotning hamma janrlarida shoh asarlar bitdi. Ulug' mutafakkir va insonparvarning sermahsul faoliyati fazilatlaridan biri uning adabiyotga, ijodkorlarga ko'rsatgan homiyligi, mehr-muhabbatida ko'zga yaqqol tashlanadi. U o'zidan oldin o'tgan Ahmad Yassaviy, Sakkokiy, Xorazmiy, Lutfiy singari salafalaridan tortib, zamondosh ijodkorlarni ham o'z nazaridan qoldirmay, hurmat-ehtirom bilan tilga oladi va adabiyot tarixi va adabiy jarayon haqida «Majolis un-nafois», «Nasoyim ul-muhabbat», «Mezon ul-avzon» asarlarini yozib, adabiy tanqidchi, faylasuf-adabiyotshunos sifatida o'zidan xayrli nom qoldirdi. Yaqin va O'rta Sharq mintaqasidagi adabiyot ilmida o'ziga xos adabiy yo'nalish-uyg'onish sifatida XII asrdan boshlangan. Bugungi kunga kelib shuni

anglayapmizki, shoirni dunyo bilsa-da, hazrat Alisher Navoiy dahosi o'zining munosib bahosini to'la olgani yo'q. Uning qimmatli asarlari, ijodi keng miqyosda o'rganilishi, dunyo xalqlari tillariga sifatli tarjima qilinib, targ'ib etishi vaqti yetdi. Bu ulkan xayrli ish uchun jahon sivilizatsiyasi oldida birinchi navbatda, biz, buyuk bobomizning vorislari burchlimiz. Haqiqatning ko'ziga tik qaraydigan bo'lsak insoniyat tarixida Navoiydek daho shoir hamma xalqlarga ham nasib qilavergan emas. Mustaqillik bizga barcha qadriyatlarimiz qatori mutafakkir, jahon adayoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Alisher Navoiy merosini o'rganishning keng ufqlarini ochdi. Endilikda uning ijodini aslicha, mohiyatini tushunib o'rganish imkoniyati yuzaga keldi. Bugungi kunda ulug' shoir merosini chuqur va atroflicha tahlil qilish, uni xalqimiz ma'naviyatiga yetkazishga kirishildi. Navoiyning nasriy hamda she'riy asarlarida sabr so'zining qo'llanishi quyidagi ma'nolarga ega:

1. Shoirning "Xamsa" dostonlarida ushbu tushuncha ko'proq qahramonlarning ruhiy holatini tasvirlash, toqatsizlik ma'nolarida qo'llanilgan.
2. "Farhod va Shirin" dostonida Farhodning Shiringa bo'lgan ham ilohiy, ham insoniy sevgisi madh etilgan bo'lsa, "Layli va Majnun" dostonida tamomila ilohiy ishq kuylanganligi bevosita sabr tushunchasi orqali ochib berilgan.
3. Tasavvufda ma'naviy komillikning har bir bosqichiga erishishda ham sabr ko'prik vositasini o'taydi. Dostonlarida, xususan "Lison ut-tayr"da bu holatining badiiy ifodasi tasvirlangan. Tasavvufiy ma'nolarida o'ziga xos usullarda yoritilganligi.
4. Sabr barcha ishda insonga iroda baxsh etuvchi vosita hisoblanar ekan, har qanday holatda insonni yomon ishlardan tiyilishi uchun kuch bag'ishlab turishi bilan barcha fazilatlardan ustun turishi "Hayrat ul-abror", "Sab'ai sayyor", "Lison ut-tayr", "Mahbub ul-qulub"dagi hikoyalar orqali yoritilgan. Sabrsiz qay ahvolga tushishini hikoya orqali obrazli aks ettiradi.
5. Shoh Iskandar jahongirligi madh etilgan dostonida uning hayoti

davomidagi adolatli siyosat yuritishi tahsinga sazovor bo'lsa, shaxsiyatidagi sabrsizlik va qanoatsizligi uning juda ko'plab o'lkalarni bosib olishiga va uning qismatiga sababchi bo'lganligi aks ettirilgan.

6. Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidagi har bir devondagi she'rlarda sabrni ko'rish mumkin. 1."G'aroyib us-sig'ar"da 23, "Navodir ush-shabob"da 26, "Badoe' ul-vasat"da 49, "Favoyid ul-kibar"da 24 ta o'rinda-jami 122 o'rinda sabr so'zi tilga olinadi. Navoiy she'rlarida qo'llangan sabr tushunchasi quyidagi ma'noviy guruhlarga bo'lib tahlil qilishimiz mumkin:
 1. Sabrning Alloh xislatlaridan biri sifatidagi talqini.
 - 2.Sabr-Alloh tomonidan berilgan buyuk ne'mat.
 - 3.Shoirning yorga yetishish yo'lidagi toqatsizlik holati tasviridagi sabr.
 - 4.Oshiq qalbida sabrning ishq iztiroblariga bardosh berishi yo'lida ko'nglida makon qurganligi tasviri.
 5. O'z-o'ziga sabrli bo'lishi uchun pand –nasihat o'rinlarida.
 6. Oshiq sabr-qarorini olgan ma'shuqaga shikoyat tarzidagi talqini.
 - 7.Tangridan yorga rahm, o'ziga sabr tilashi yo'lida.
 8. Sabrsizligi uchun o'z-o'zini tanqid qilish.
 9. Kitobxonga sabrli bo'lishi kerakligi xususida o'gitlari talqini.
 10. Yorga hajr azobida o'zining sabrliligini ta'kidlash.
 11. Qur'oni Karim oyatlarida uchraydigan sabrga ishora o'rinlarida.
7. Navoiy asarlarida sabr so'zigagina to'xtalib o'tmaydi, balki u bilan bog'liq qanoat tushunchasini o'zining "Mahbub ul-qulb" asarida alohida-alohida sifatlar ekanligini bizga aniq qilib ko'rsatib bergan.
8. Inson yaxshiligi, to'g'riligi uning sabrliligi bilan o'lchanadi. Sabrsiz qay ahvolga tushishini hikoya orqali obrazli aks ettiradi.
9. Shoir shaxsiyatidagi sabrlilik xususiyati yuksakligi.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy asarlarida sabr insonga xos bo'lgan eng ezgu xislatlardan biri sifatida tilga olinadi va bu tushuncha diniy va dunyoviy ma'nolarga ega. Shoirning sabr haqidagi fikrlarini o'rganish va tahlil qilish,

ulug‘ adib shaxsiyatini yaxshiroq anglashda, har bir kishining irodasi matonatini tarbiyalashda, sabrli bo‘lishida mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi. Qolaversa, Hazrat Navoiy asarlarini o‘qish asosida shoir ilgari surgan insoniy xislatlarning oiliy darajalaridan biri bo‘lmish sabrni har jihatdan talqin etish shoir asarlarining tub mohiyatini anglashga, ulug‘ shoir ijodidagi yangi-yangi qirralarni kashf etishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat -yengilmas kuch. Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. 176 bet.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub.Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. 111 bet.
- 3.Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1991. 462 bet.
4. Alisher Navoiy . Munshaot. –Toshkent: “Ma’naviyat”, 2001. -B. 152 bet.
- 5.Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. 392 bet.
- 6.Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. 536 bet.
- 7.Alisher Navoiy. Layli va Majnun . Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. 320 bet.
- 8.Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. 440 bet.
- 9.Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. 672 bet.
- 10.Alisher Navoiy. Shoh baytlar. Toshkent: “Fan”, 2007. 243 bet.
- 11.Alisher Navoiy. Asarlar. 10 jildlik. 8-jild.Toshkent: “O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. 712 bet.
- 12.Alisher Navoiy. Asarlar.10 jildlik.9-jild.Toshkent: “O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. 768 bet.
- 13.Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. 1-devon.Toshkent: “Tamaddun” 785-bet.
- 14.Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. 2-devon.Toshkent: “Tamaddun” 2011. 731-bet.
- 15.Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. 3-devon.Toshkent: “Tamaddun”, 2011. 739-bet.

16. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. 4-devon. Toshkent: "Tamaddun", 2011. 779-bet
17. Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar uchun lug'at. Toshkent: "Sharq", 2010. 527 bet.
18. Vohidov. E. Shoiru she'ru shuur. Toshkent, 1987. 224 bet.
19. Gulxaniy. Zarbulmasal. Toshkent, 1972. 54 bet.
20. Haqqulov I. Zanjirband sher qoshida. Toshkent: "Yulduzcha", 1989.
21. Haqqulov I. Mushohada yog'dusi. Toshkent: "Fan," 2009. 383 bet.
22. Haqqulov I. "Sabr-iroda ishi", "Tafakkur" jurnali. 2009. 2 bet.
23. Husayin Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati N. Komilov tarjimasini. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. 110 bet.
24. Jo'rayev Z. G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar. Toshkent: "O'zbekiston", 1994. 159-bet.
25. Komilov. N. Tasavvuf. Toshkent: "Movarounnahr", 2009. 444 bet.
26. Mavlono Jaloliddin Rumi. Hikmatlar. Toshkent: "Fan", 2007. 187 bet. .
27. Navoiy asarlari lug'ati. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972 . 781 bet.
28. Sirojiddinov Sh. "Alisher Navoiy" "Manbalarda qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili". Toshkent: "Akademnashr", 2011. 354 bet.
29. Sultonmurod Olim. Naqshband va Navoiy-Toshkent: "O'qituvchi", 1996. 216 bet.
30. Tafakkur durdonalari. 111 Vatandosh allomalarimizning hikmatli fikrlari. – Toshkent: 2012. 381 bet.
31. Uch bulbul gulshani. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. 645 bet.
32. Ziyo net.Uz. Ilhom Ahror. Sarchashmalar. 1 bet.
33. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-tom Toshkent. 2004. 703 bet.
34. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik. 3-tom. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2007. 687 bet.

35.G'afforova. Z. Navoiyning Hamd va Na't g'azallari. Toshkent: "Ma'naviyat", 2001. 62 bet.

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I.BOB. NAVOIY DOSTONLARIDA SABR TALQINI	
1.1.“Hayrat ul-abror” dostonida sabrning ifodalanishi.....	7
1.2.“Farhod va Shirin” dostonida sabr talqini.....	12
1.3.“Layli va Majnun” dostonida sabr tasviri.....	16
1.4.“Sab’ ai sayyor” dostonida sabrning ifodalanishi.....	20
1.5.“Saddi Iskandariy” dostonida sabr mavzusining yoritilishi.....	23
1.6. “Lison ut –tayr”da sabr xususiyatining yoritilishi.....	26
II BOB. SHOIR SHE’RIYATIDA SABR BILAN BOG’LIQ FIKRLAR.....	32
III BOB. NAVOIYNING NASRIY ASARLARIDA SABR BILAN BOGLIQ FIKRLAR.....	46
3.1. “Mahbub ul - qulub”da bu atama talqini.....	46
3. 2. “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida sabr.....	53
3.3.“Majolis un-nafois” asarida mazkur tushunchaning ifodasi.....	55
3.4. “Munshaot”dagi talqini.....	57
XULOSA.....	59
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	63